2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 78 (1139), 2024-yil 24-aprel, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

AMALIY HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-aprel kuni Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari qardosh Qozog‘iston yetakchisi va xalqiga ushbu mamlakat hududidagi keng miqyosli toshqinlar natijasida insonlar qurbon bo‘lgani munosabati bilan hamdardlik izhor etdi.

Bunday tabiiy ofatlar keyingi paytlarda mintaqamizda kuzatilayotgan iqlimning salbiy o‘zgarishlari oqibati ekani qayd etildi.

Bu borada yaqin amaliy hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi.

Prezidentlar yaqinda Xiva shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuvdagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalarini muhokama qildilar.

Mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar va bo‘lajak oliy darajadagi uchrashuvlar rejasi ham ko‘rib chiqildi.

O‘zA

Do‘stlik namunasi

YAXSHI KUNDA YONMA-YONMIZMI, SINOVLI KUNDA HAM BIRGAMIZ

Do‘st kulfatda bilinadi. Tabiiy ofat — suv toshqini tufayli Qozog‘iston katta talafotlarni boshdan kechirmoqda. Tabiat xurujining dastlabki kunida 76 mingdan ortiq odam xavfli hududlardan olib chiqildi, 7 mingdan ortig‘i vaqtinchalik joylashtirish markazlaridan qo‘nim topdi. Mamlakatning 10 ta hududida favqulodda holat e’lon qilindi. Prezident Qosim-Jomart Toqayev ushbu toshqinlarni so‘nggi 80 yildagi eng dahshatli ofat, deb atadi.

Ofat boshlanganda favqulodda qutqaruv ishlariga 16 ming 375 kishi, 1600 dan ortiq texnika, 377 ta suv nasos, 81 ta qayiq va 15 ta samolyot jalb etildi. 18-aprelga kelib respublikaning beshta viloyatida 5,7 mingta turar joy binosi va 1,1 mingta tomorqa suv ostida qoldi. 61 ta yo‘lda suv toshqini kuzatilib, 60 ta aholi punkti transport aloqasidan uzilib qoldi. Afsuski, ushbu raqamlar o‘sib boraveradi.

Yon qo‘shni, qolaversa, do‘st-birodar xalqning mushkuliga bunday sharoitda jim qarab turish o‘zbek xalqiga xos odat emas. Shu bois, O‘zbekiston Prezidenti topshirig‘i bilan Qozog‘istonda yuz bergan suv toshqinlari oqibatida zarar ko‘rgan aholiga 20-aprel kuni insonparvarlik yordami yuborildi.

Vazirlar Mahkamasining insonparvarlik yordami yukini shakllantirish hamda belgilangan manzilga yetkazib berish bilan bog‘liq tashkiliy masalalarga qaratilgan farmoyishi qabul qilindi. Insonparvarlik yordami yukini O‘zbekiston Prezidenti maslahatchisi T.Xudaybergenov boshchiligidagi ishchi guruh Qozog‘istonga yetkazib berdi.

Katta hajmli 15 ta yuk mashinasida insonparvarlik yordami jo‘natildi. Uning tarkibidan oziq-ovqat mahsulotlari, ayollar, bolalar va erkaklar kiyim-kechagi, ko‘rpacha, yoping‘ich, yostiqlar, gigiyenik vositalar, maxsus qurilmali chodirlar, rezina qayiq to‘plamlari va boshqa zarur mahsulotlar o‘rin olgan.

Shu kunlarda esa ijtimoiy tarmoqlar qozoq xalqining o‘zbek birodarlariga yo‘llagan dil izhorlari bilan to‘lib-toshdi. Mahalliy mutasaddi-yu oddiy odamlargacha og‘ir paytda o‘zlarini yakkalab qo‘ymagani uchun xalqimizdan, davlatimiz rahbaridan minnatdor ekanini bildirishdan charchashmayapti. Darhaqiqat, bu yordam, bu mahsulotlar ayni paytda tabiiy ofat bilan kurashayotgan minglab odamlar uchun o‘ta zarur va kerak edi.

Kuni kecha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari qardosh Qozog‘iston yetakchisi va xalqiga ushbu mamlakat hududidagi keng miqyosli toshqinlar natijasida insonlar qurbon bo‘lgani munosabati bilan hamdardlik izhor etdi. Bunday tabiiy ofatlar keyingi paytlarda mintaqamizda kuzatilayotgan iqlimning salbiy o‘zgarishlari oqibati ekani qayd etildi. Bu borada yaqin amaliy hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi.

Mana shu muloqotning o‘ziyoq qardosh xalqlarimiz o‘rtasidagi mehr-oqibat rishtalari sinovli kunlarda yanada mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

— Insonparvarlik yordami ko‘lami va ahamiyati haqida gapirish ortiqcha, — deydi O‘zbekiston qozoq milliy madaniy markazi raisi Serikboy Usenov. — O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro hurmat, ishonch va foydali sheriklik ruhida rivojlangan. Og‘ir kunlarda bir-biriga yordam qo‘lini cho‘zish xalqlarimiz uchun odatiy hol. Insonparvarlik yordamini jo‘natish va yetkazishga bosh-qosh bo‘lgan mutasaddilarga O‘zbekistondagi millatdoshlarimiz nomidan tashakkurlarimni izhor etaman.

Darhaqiqat, o‘zbek va qozoq xalqlari qadim zamondan tinchlikda va murosada, bir-birini qo‘llab-quvvatlagan holda yashab kelmoqda. Zero, yaxshi kunda yonma-yonmizmi, sinovli kunda ham birgamiz, mushkulotni birga yengamiz.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

SUV TA’MINOTI UCHUN AJRATILAYOTGAN MABLAG‘ OLTI KARRA OSHDI

Samarasi-chi?

Har bir davrning o‘z gashti bo‘ladi. Oradan vaqtlar o‘tib, o‘sha paytga xos turmush tutumlarining sog‘inch-u armonlari, xotiralari eslanadi.
Esimda, balog‘at yoshimizda dugonalarim bilan chelak ko‘tarib, ko‘cha boshidagi hovuzdan suv tashirdik. Bora-kela dilgir gurunglar hali-hamon yodimda. Ayniqsa, yoz pallasi hovuz sathi yarmidan pastlab, suvi to‘q ko‘kimtir tusga kirgan, ichsang ichingni buzib kasal qiladigan, ya’ni ichishga yaroqsiz bo‘lib qolgan paytlarda uch-to‘rt ko‘cha naridan, hatto ba’zan qo‘shni qishloqdan suv tashiganimizda bu suhbatlar avjiga chiqardi...

Toza ichimlik suv — inson sog‘lom va uzoq hayot kechirishini ta’minlaydigan muhim ne’matlardan biri. Keyingi yillarda sayyoramizda ro‘y berayotgan global ekologik muammolar, tabiatga ko‘rsatilayotgan salbiy ta’sir natijasida ushbu qimmatli tabiiy resurs kamayib borayotgani jahon hamjamiyatini tashvishga solmoqda.

Raqamlar, xulosalar bu tashvishlar asosli ekanini yaqqol ifoda etadi. BMT hisobotlariga ko‘ra, sifatli ichimlik suv bilan yetarli ta’minlanmaslik va oqova suv tarmoqlari ishlamasligi oqibatida har yili dunyoda 780 ming kishi dezinteriya va vabodan vafot etadi. Bunday muammolarga yechim topish uchun aholining toza suvga ehtiyojini ta’minlash va suv manbalariga salbiy ta’sirlarning oldini olish dolzarb vazifadir.

Aholini toza suv bilan ta’minlash mamlakatimiz uchun ham dolzarb masala. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda keng qamrovli chora-tadbirlar ko‘rildi. Xususan, oxirgi yillarda ichimlik suv ta’minoti sohasiga davlat byudjetidan 14,5 trillion so‘m yoki oldingi davrga nisbatan 6 barobar ko‘p mablag‘ ajratildi. 31 ming kilometr masofaga ichimlik va oqova suv tarmoqlari tortildi, 1200 ta suv inshootida qurilish-ta’mirlash ishlari bajarildi. Mingta mahalladagi 6,5 million aholi yashaydigan xonadonlarga ilk bor toza ichimlik suv kirib bordi.

Davomi 3-betda

“Yashil makon”

OROLBO‘YIGA YANGI HAYOT KIRIB KELDI

Ilgari to‘lqinlari mavj urib turgan dengiz qirg‘og‘idan uzoqlarga ko‘z tashlayman. Suvni to‘lqinlantirib turadigan shabada endi qurigan dengiz tubidagi qum-to‘zonlarni ko‘tarib esmoqda. Umid bilan uzoqlarga termilaman — oxiri ko‘rinmaydigan sahro. Bugun quruq-qaqshagan cho‘l o‘rnida yashil qoplamalar paydo bo‘lmoqda. Bu esa ko‘nglimga ozgina bo‘lsa ham iliqlik olib kiradi.

Davomi 3-betda

Ta’lim taraqqiyoti

YUQORI MALAKALI O‘QITUVCHI

zakovatli avlodni voyaga yetkazadi

O‘quvchilar muvaffaqiyatini sinfdagi bolalar soni, sinf xonalari jihozlanishi, dars davomiyligi ta’minlashi bilan birga, uning asosiy omili muallimning salohiyatidir. Qachonki, o‘qituvchi bolaning ma’naviy quvvati, ta’lim olish istagini qo‘llab-quvvatlasa, unga zarur bilim va ko‘nikmani bera olsa, o‘sha yerda zakovatli bolalar yetishib chiqadi.

O‘quvchida o‘qish, o‘rganish istagi majburan shakllantirilmaydi, faqat o‘qituvchisi ishonchi va malakali yondashuvigina unga ko‘mak berishi mumkin. Bu esa pedagogdan yuksak kasbiy mahorat va malaka talab etadi.

Prezidentimizning 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tardi.

Xalq ta’limi xodimlari, jumladan, pedagog kadrlarning 5 yillik davriylikka asoslangan malaka oshirish tizimi “hayot davomida o‘qish” tamoyiliga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga transformatsiya qilindi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad pedagogning malakasi zamon talabiga mos ravishda yuksalishi uchun shart-sharoit yaratish, malaka oshirish tizimini takomillashtirishdan iborat.

Davomi 5-betda

Mahallaning bir kuni

ODAMLAR BUGUN FAROVON YASHASHI KERAK

Mahalla azaldan qadriyatlar makoni, tarbiya maskani, hamjihatlik manzili va odamlar yashaydigan mustahkam qo‘rg‘on sifatida qadrlanib kelinadi. Bu go‘shada yashaydiganlar o‘z quvonch-u tashvishlarini, yutuq va kamchiliklari, yaxshi va yomon kunlarini birgalikda baham ko‘radi. “Mahalla yettiligi” tashkil qilinishi va aniq vazifalari belgilab berilishi ham bu mo‘jaz go‘shaning yanada ravnaq topishi yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir.

“Mahalla yettiligi”ning boshi bo‘lgan rais ehtiyojmand oilalarning uy-joyini yaxshilashga, hokim yordamchisi ishsizlarning ish topishiga ko‘maklashsa, yoshlar yetakchisi yigit-qizlarni turli to‘garaklarga chorlaydi, xotin-qizlar faoli ayollarni samara beradigan ishlarga jalb qiladi. Soliq va ijtimoiy xodimlar aholining turmush sharoiti yaxshilanishida bevosita ishtirok etadi. Shu tariqa “Yettilik” fuqarolarning eng yaqin ko‘makchisiga aylanmoqda.

Davomi 2-betda

Agar xorij tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Yaponiya, Italiya, Turkiya kabi mamlakatlarning seysmik xavf darajasi 8-9 balli hududlarida ko‘p qavatli binolar va murakkab konstruksiyali ko‘priklarga “seysmik izolyatsiya” qurilmasi majburiy o‘rnatilishi belgilangan. Chunki seysmoprotektor bino va silkinish muvofiqligini ta’minlab, konstruksiyalarga zilzila ta’sirini 2-3 ballgacha kamaytiradi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 24-aprel, 78-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Sharh

SEYSMIK IZOLYATSIYA

Zilzilabardoshlik talablari kuchaytirilmoqda

Yaqin-yaqingacha yurtimizning aksariyat shaharlari, hatto poytaxtimizda ham eng baland bino, deyilganda ko‘z oldimizga 9 dan 16 qavatgacha bo‘lgan ko‘p qavatli uylar, barmoq bilan sanarli 20 qavatgacha bo‘lgan ma’muriy bino yoki mehmonxonalar kelardi. Bugun vaziyat tamoman boshqacha: keyingi yillarda qurilgan tom ma’nodagi baland — osmono‘par binolar oldida endi ular ancha pastqam.

Toshkentdagi pastdan tomiga qarasang, boshingdan do‘pping tushadigan 50 qavatli inshootlarni qo‘ya turing, viloyatlarda ham 25-30 va undan yuqori qavatli binolar qurish oddiy holga aylanib boryapti.

Bir qarashda quvonarli manzara: go‘zal arxitektura, qulay infratuzilma, yerdan samarali foydalanish. Lekin bino qancha baland bo‘lsa, uning seysmik xavfi shuncha oshib boradi. Shu nuqtayi nazardan, keyingi paytlarda aholining bunday ko‘p qavatli uylarning zilzilaga bardoshliligi bilan bog‘liq bildirayotgan xavotirlari o‘rinli ko‘rinadi. Ayniqsa, o‘tgan yili Turkiyada bo‘lgan zilziladan keyin.

Qolaversa, bino qurilishidagi bugungi balandlik me’yor emas. Zero, rivojlanish nuqtayi nazaridan erta-indin ular ham yangilari oldida pastqam bo‘lib qolishi hech gap emas. Demak, bu masalaning bir jihati. Boshqa tomoni, yuqorida aytib o‘tganimiz — zilzilabardoshlik masalasi.

Modomiki shunday ekan, qurilish jarayoniga zamonaviy shaharsozlik me’yorlarini tatbiq etish talab etiladi. Bu zarurat, avvalo, shunga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishini taqozo etadi.

Shu ma’noda davlatimiz rahbarining shu yil 17-apreldagi “Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Binobarin, qarorda bu borada yangi tartib va mexanizmlar belgilab berildi.

Agar xorij tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Yaponiya, Italiya, Turkiya kabi mamlakatlarning seysmik xavf darajasi 8-9 balli hududlarida ko‘p qavatli binolar va murakkab konstruksiyali ko‘priklarga “seysmik izolyatsiya” qurilmasi majburiy o‘rnatilishi belgilangan. Chunki seysmoprotektor bino va silkinish muvofiqligini ta’minlab, konstruksiyalarga zilzila ta’sirini 2-3 ballgacha kamaytiradi.

E’tiborli jihati, nomi yuqorida qayd etilgan qaror bilan joriy yil 1-iyundan boshlab mamlakatimizda MSK-64 shkalasi bo‘yicha 8 va undan yuqori balli seysmik faol zonalarda yangi qurilishi rejalashtirilayotgan 5 qavatdan yuqori tibbiyot obyektlari hamda 9 qavatdan yuqori binolarni faol seysmik himoyalash qurilmalari, shu jumladan, seysmoizolyatsiya va dempfer uskunalari bilan loyihalash amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. Faol seysmik himoyalash qurilmalarini o‘rnatish qurilishga mas’ul buyurtmachi tashkilotlar tomonidan moliyalashtiriladi.

— Yer qimirlagandan keyin yer osti to‘lqinlari binoga ta’sir qilganda, seysmik izolyatsiya qurilmasi yordamida to‘lqinlar uzatilishi kesiladi, — deydi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rektori vazifasini bajaruvchisi Bahrom To‘laganov. — Bu bizga hozirgidan ham yuqori qavatli binolarni qurishga imkon beradi. Ana shu maqsadda universitetimiz huzurida markaz tashkil etish ko‘zda tutilmoqda. Markazning asosiy vazifasi binolar yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarini avtomatik monitoring qilish uskunalaridan olinadigan ma’lumotlarning yagona bazasini yuritish orqali tahlil qilishdan iborat. Bu bizga nima beradi? Monitoring natijalaridan kelib chiqib, biz kelajakda bino va inshootlar qurishimiz, konstruksiyalar normalarini o‘zgartirib, takomillashtirimiz mumkin bo‘ladi.

Ayni paytda mamlakatimizda qurilayotgan, xavflilik darajasi yuqori binolarning zilzilalar sodir bo‘lgandan keyingi holatini tezkor aniqlash imkoniyati mavjud emas. Mazkur hujjatning ahamiyatli jihati, joriy yil 1-iyuldan boshlab yangi qurilishi rejalashtirilayotgan, xavflilik omili III-IV toifa bo‘lgan obyektlarga bino va inshootlarning yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarini avtomatik monitoring qilish uskunasini o‘rnatish majburiy etib belgilanadi.

Yangi tartibga ko‘ra, MSK-64 shkalasi bo‘yicha 5 va undan yuqori balli yer silkinishi sodir bo‘lganda bino va inshootlarning holati avtomatik monitoring qilish uskunalaridan olingan ma’lumotlar asosida tezkor tahlil qilinadi. Xavf aniqlanganda zudlik bilan aholi va hududning seysmik xavfsizligini ta’minlash tadbirlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashiga axborot kiritib boriladi.

> **1-avgustdan boshlab esa xavflilik omili III-IV toifa bo‘lgan obyektlarni hududning zilzilalar kuchini ko‘rsatib beruvchi mintaqaviy akselerogrammalar bazalaridan kelib chiqib loyihalash va qurish tartibi joriy etiladi.**

Respublika kengashi esa uch kun muddatda hududiy hokimliklar bilan birga zilzila natijasida aniqlangan zaif nuqtalarni mustahkamlash va xavfni bartaraf etish choralarini belgilab, ularning amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Masalan, eng ko‘p zilzilalar sodir bo‘ladigan Yaponiyada murakkab bino-inshootlar hududda bo‘lib o‘tgan kuchli zilzila intensivligiga muvofiq quriladi va bu konstruksiyani hududning seysmik faolligiga moslashtirish imkonini beradi.

Bino va inshootlar qurilishini hududlarning seysmik faolligiga muvofiq tashkil etish maqsadida 2024-yil 1-iyulga qadar barcha tuman va shaharlar kesimida mintaqaviy akselerogrammalar raqamlashtiriladi hamda ularning onlayn bazalari shakllantiriladi.

1-avgustdan boshlab esa xavflilik omili III-IV toifa bo‘lgan obyektlarni hududning zilzilalar kuchini ko‘rsatib beruvchi mintaqaviy akselerogrammalar bazalaridan kelib chiqib loyihalash va qurish tartibi joriy etiladi.

— Dunyoda talafotli zilzilalar soni ortib bormoqda, — deydi FA Seysmologiya instituti laboratoriya mudiri Ulfat Nurmatov. — Bu esa aholi hayoti va mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalariga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohasini doimiy takomillashtirib borish, mavjud va qurilayotgan bino-inshootlarning seysmik mustahkamligini ta’minlash, zilzilani prognozlash, monitoring qilish hamda unga tayyorgarlik ko‘rishda davlat organlari va tashkilotlarining o‘zaro aloqalarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizning hududimiz seysmik faol hudud hisoblanadi. Shuning uchun hududning seysmik holatini doim nazorat qilib borishga majburmiz. Mazkur qaror hududlarda mavjud faol tektonik yer yoriqlari zonalaridagi bugungi holat yaqin kelajakda bu yerlarda zilzila bo‘lish ehtimoli mavjudmi yoki yo‘qmi, degan savollarga javob berishga qaratilgan. Bunda yurtimizda bo‘lib o‘tgan zilzilalar monitoringi, ularning ilmiy tahlili va faol tektonik yer yoriqlarining harakatlari yaqin kelajakda kuchli zilzila xavfi bor hududlarni aniqlash imkonini beradi.

Zilzila sodir bo‘lganda vayronagarchiliklardan tashqari, gaz va elektr tarmoqlaridagi talafotlar ham xavfli tus oladi. Ayni paytda bizda ba’zi xorijiy mamlakatlardagi kabi binolarni gaz va elektr tarmoqlarini avtomatik bloklash tizimi bilan qurish amaliyoti yo‘lga qo‘yilmagan.

Qaror bilan endilikda bizda ham yangi qurilishi rejalashtirilayotgan, xavflilik omili III-IV toifa bo‘lgan obyektlarda gaz va elektr tarmoqlarini kuchli zilzila paytida avtomatik bloklash tizimi bilan loyihalash tartibi joriy etiladi. Bu zilzila paytida bino poydevorini portlash va chaqnashlar ta’siridan himoya qilish imkonini beradi. Ana shu maqsadda ayni talablarga mos shaharsozlik hujjatlari ekspertizadan o‘tkaziladi.

— Aholining zilzila vaqtida to‘g‘ri harakatlanishiga bag‘ishlangan ko‘rsatuv, lavha, rolik va eshittirishlar tayyorlanadi, — deydi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi bo‘lim boshlig‘i Bobomurod Qurbonov. — Qarorda seysmik xavfsizlikni ta’minlash, sodir bo‘lgan zilzilalar va fasllardagi namgarchiliklar ta’siridan cho‘kkan hamda deformatsiyalar paydo bo‘lgan bino va inshootlarni mustahkamlash, zilzilalarni monitoring qilish va ilmiy tahlilini yuritish bo‘yicha ko‘plab tadbirlar belgilangan. Xususan, seysmik xavfsizlikni ta’minlash hamda bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”, seysmik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan hududiy chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalari tasdiqlandi.

Yana bir muhim jihat. Fanlar akademiyasi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Zilzila muhandisligi olimlari assotsiatsiyasi tashkil etiladi. Assotsiatsiya vazirlik va idoralarning sohaga mas’ul mutaxassislari va olimlar hamda xorijiy mutaxassislardan iborat tarkibda Fanlar akademiyasi tomonidan Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda shakllantiriladi va har uch yilda yangilab boriladi. Shuningdek, har bir hududda kuchli zilzilada aholini qutqarish ishlariga jalb etish uchun volontyorlik guruhlarini shakllantirish amaliyoti ham muhim ahamiyatga ega.

Bir so‘z bilan aytganda, ushbu qaror ehtimoliy talafotlar ko‘lamini minimallashtirishga xizmat qiladi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mahallaning bir kuni

ODAMLAR BUGUN

FAROVON YASHASHI KERAK

Boshlanishi 1-betda

Zangiota tumanida tarixi olis o‘tmishga borib taqaladigan Olmazor mahallasi bor. Ikki mingdan ortiq aholi istiqomat qiladigan mahallaning har bir qarich yeri obod, sarishta, uylar oldiga ekilgan gullar ifori yon-atrof bo‘ylab taralib turadi. Mahalla ahlining biri bog‘bon, biri dehqon, gulchi, tikuvchi. Xullas, har bir xonadonda ishlab chiqarish yoki dehqonchilik avjida. Ba’zi xonadonlar darvozalari tepasiga “Sarishta xonadon”, “Namunali xonadon”, “Mahalla fidoyisi” yozuvli peshtaxtalar ilib qo‘yilgan. Mahalla raisi Zohida Maslanovaning aytishicha, bu yerdagi keksayu yosh birday mehnatkash. Bayramlar arafasida o‘tkaziladigan turli tanlovlar natijasida g‘olib xonadon egalariga qimmatbaho sovg‘alar berilar, yashab turgan xonadoni darvozasi tepasiga shunday yozuvlar ilib qo‘yilar ekan.

Oyposhsha xolaning hikoyasi

“Namunali xonadon” yozuvi osilgan uyga kirib borganimizda, mahalla raisining “mahallamizda keksayu yosh birday mehnatkash”, degan so‘zining isbotini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rdik. Yoshi ulug‘ onaxon, 8 farzand, 27 nevara, 40 chevara va bir etak evaralarning buvisi bo‘lgan 84 yoshli Oyposhsho Saydig‘oziyeva hovli o‘rtasidagi ekinlar tagini yumshatayotganiga guvoh bo‘ldik. Uning suhbatini olib, “Mehnatning tagi rohat” naqlining asl ro‘yosini aynan shu xonadon misolida ko‘rdik. Onaxonning farzandlari va nevaralarining barchasi dehqonchilik bilan shug‘ullanar, orttirgan daromadlari evaziga to‘kin va farovon yashar ekan.

Onaxonning turmush o‘rtog‘i Saidusmon ota ham Olmazor mahallasida to‘y va ma’rakalarning boshida turuvchi, hammani hamjihatlikka chorlaydigan fidoyi inson bo‘lgan. Bir vaqtlar Saidusmon otaning sa’y-harakatlari natijasida hashar yo‘li bilan mahallada masjid qad rostlagan. 2012-yildan mahallalardagi kichik masjidlarni yopish ishlari boshlanganida otaxon o‘sha yillarda mahalla raisi bo‘lgan S.Muhiddinov va fidoyilar bilan yelib-yugurib, masjidni mahalla guzari sifatida saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan.

Ahillik va oqibat bo‘lsa, pul ham, yo‘l ham topiladi

Zohida Maslanovaning bobosi, rahmatli Zokir Muhiddinov ham uzoq yillar Olmazor mahallasida jamoatchilik asosida mahalla raisi bo‘lib ishlagan. Mahallani obodonlashtirishda, gazlashtirish va ichimlik suv bilan ta’minlashda jonbozlik qilgan. Shu mahallada tug‘ilib voyaga yetgan Zohida opa esa 2016-yilda mahallada xotin-qizlar mutaxassisi, 2019-yildan boshlab mahalla raisi lavozimida ishlamoqda. Tahsinga sazovor jihati, mazkur mahalla na davlat, na viloyat va na tuman dasturlariga kirmagan, to bugungi kungacha hech qanday iqtisodiy yordam va pul olmagan, olishga ehtiyoj ham bo‘lmagan. Bu esa shu yerda yashayotgan odamlarning tili va dili birligidan, ahilligi va mustahkam oqibatidan darak beradi.

2020-yilda mahalla “Ochiq budjet” portali loyihasida ishtirok etib, 150 million so‘m yutib olgan va shu mablag‘ evaziga Sakkiz og‘a-ini ko‘chasidagi barcha eski simyog‘ochlar yangisiga almashtirilib, ko‘chaga videokameralar o‘rnatilgan. 2021-2022-yillarda mahalla ahli yana “Ochiq budjet” portali orqali jami 3 milliard 200 million so‘m yutib olgan. Ko‘chalar to‘liq asfaltlanib, bolalar o‘yingohlari bunyod etilgan, ichki ariqlar tozalanib, beton lotoklar o‘rnatilgan, mahalla binosi kapital ta’mirlangan va eng asosiysi, mahalla kutubxonasi tashkil etilgan. 2023-yildagi “Ochiq budjet” portalidan 1 milliard 300 million so‘m yutib olinib, mahalla infratuzilmasidagi barcha muammolar bartaraf etilgan. Mahalladagi elektr, ichimlik suv va tabiiy gaz ta’minoti yaxshilanib, aholining farovon yashashi uchun barcha sharoitlar badastir qilingan.

Aslida, bu kabi ishlar mahalla ahlining bir yoqadan bosh chiqarib, bamaslahat ish ko‘rishi samarasidir.

Ko‘pga nafi tegayotgan opa

— Oilamizda 4 farzand edik. Men o‘qishga kira olmaganman, ketma-ket sovchilar kelishni boshlagan. Ota-onamning roziligi bilan sinfdoshimga turmushga chiqdim, — deydi Olmazor mahallasi raisi Zohida Maslanova. — Kelin bo‘lib tushgan xonadonim dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanardi. Bu orada birin-ketin farzandlarimiz tug‘ildi. Ularning ham suyagi mehnatda qotdi. 2016-yilda yoshi ulug‘lar xonadonimizga kelib, mahallada ishlashni taklif qildi. Dastlab xo‘jayinim juda qarshi bo‘lgan. Men esa “Adasi, o‘qishga kira olmaganim yuragimda armon bo‘ldi, bir imkon bering, mahallada ishlab, o‘zimni sinab ko‘ray”, deya ruxsat olib, ishga chiqib ketdim. Dastlab xotin-qizlar bilan ishladim. 2019-yilda mahalla raisi etib saylashdi. Mahallamizda har bir ish fuqarolar maslahati bilan yo‘lga qo‘yiladi, balki yutuqlarimiz ham shundan bo‘lsa kerak. Shu yil tuman bo‘yicha o‘tkazilgan “Namunali mahalla raisi” ko‘rik-tanlovida birinchi, viloyat miqyosidagi tanlovda 5-o‘rinni egalladim. Pul mukofotlari va sovg‘alar bilan taqdirlandim. O‘tgan yili “Mahalla iftixori” ko‘krak nishoniga ham sazovor bo‘ldim. Gap yutuqlarda emas, mahallamiz tinchligida, xonadonlarning ahilligi va mehnatsevarligida. Bugun yon-atrofimga nazar solar ekanman, inson baxti uning yon-atrofidagilarga kerakligida ekanini chin dildan his qilaman. Aslida, xotin-qizlarga shuncha imkoniyatlar yaratib berilmoqdaki, bulardan foydalanmaslikning o‘zi gunoh. Oliy ta’lim olish uchun 47 yoshimda o‘qishga kirib, talaba bo‘ldim. 455 ta xonadon mavjud mahallamizda birorta ishsiz, daromadsiz odam yo‘q. Mahallamiz fuqarolari pomidor, bodring, sabzavotlar, turli ko‘katlar yetishtiradi, “o‘sish drayveri”miz dehqonchilik va tikuvchilik. Hamma xonadonlarda issiqxonalar bor, deyarli barcha oilalar oyiga millionlab so‘m daromad oladi.

Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.

Ibratli oila

Mazkur mahalladagi ibratli oila maqomiga ega bo‘lgan, deyarli 50-yildan buyon birgalikda umrguzaronlik qilib kelayotgan Bahrom Muhammadiyev va turmush o‘rtog‘i Anora opaning xonadoniga kirib bordik. Ular tomorqasidagi 8 sotix issiqxonada yilning 12 oyida ham turli ko‘katlar yetishtirib, sof foyda olish borasida ko‘pchilikka namuna ekan.

— Aslida, tomorqachilik va issiqxona serdaromad biznes. Mehnatimiz orqali farzandlarimni o‘qitib, uyli-joyli qildim. Ichki bozorga yilning to‘rt faslida ham ko‘katlar yetkazib beramiz. Ochig‘i, uyimizdan kelib o‘zlari olib ketishadi, — deydi B.Muhammadiyev. — Qayerdaki ahillik, halollik va mehnat bilan daromad topilsa, o‘sha yerda huzur-halovat bo‘ladi. Farzandlarim davlat ishida ishlasa ham kaftdekkina tomorqasida dehqonchilik qiladi. Bu sog‘liqqa foyda, aqliy mehnatdan keyingi charchoqni yerdagi harakat oladi va odamni bardam qiladi. Kelinlarimiz ham chevar va pazanda, qo‘li qo‘liga tegmaydi. Xullas, mehnatimiz samarasi va rohatini ko‘rib, bag‘ri butunlikda hayot kechiryapmiz. Qariyb 30 yil ichki ishlar tizimida ishlab, o‘sha yerdan nafaqaga chiqqanman. Anora opangiz esa farzandlar va nevaralar tarbiyasi bilan band bo‘lgan. Aytmoqchimanki, qaysiki oila farzandlari mehnatdan qochmasa, ota-onasining duosini olib, xizmatlarini qilsa, o‘sha xonadonda, albatta, farog‘at va fayz-u baraka bo‘ladi.

Qaror va ijro

2023-yilda Toshkent viloyati mahallalaridagi hokim yordamchilari ko‘magida 353,2 mingdan ziyod fuqaroning bandligi ta’minlangan. Tadbirkorlikka jalb qilish, mehnat qurollari va asbob-uskunalar olib berish uchun 2216 fuqaroga 11,2 milliard so‘m subsidiya ajratilgan. Bu boradagi sa’y-harakatlar joriy yilda ham davom ettirilmoqda.

— Avvallari mahallamizda atigi to‘rtta tadbirkor bo‘lgan. Hozir ular 82 nafarga yetdi. Kooperatsiya asosida 800 dan ziyod fuqaro hududdagi yetakchi tadbirkorlarga biriktirilgan. Ishsiz va doimiy daromadga ega bo‘lmagan fuqarolar bandligini ta’minlash, mavjud kamchiliklarni o‘rganib, muammolarni bartaraf etishga imkon qadar tez kirishishga harakat qilaman, — deydi Zangiota tumani Qirguzar mahallasidagi hokim yordamchisi Asiya Qudaybergenova. — “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida mahallamizdagi 32 fuqaroga 33 million so‘mdan imtiyozli kreditlar berildi. Kredit ajratilganlar orasida ijtimoiy daftarlarda ro‘yxatda turuvchi fuqarolar ham bor. Mahalladagi ishsiz yoshlardan 52 nafariga kasb-hunar o‘rganish uchun tumandagi monomarkazga yo‘llanma berildi.

Qirguzarlik Dilobar Ortiqova oilaviy sharoiti va muhiti yaxshi bo‘lmagani bois, 10-yil chet davlatda yashagan. Asiya Qudaybergenova Dilobar bilan bog‘lanadi. Dilobar unga tadbirkorlik qilishi uchun kredit olib bersa, yurtga qaytishini, bu yerda ham ancha qiynalib qolganini bildiradi. Hokim yordamchisi sa’y-harakati bilan D.Ortiqova vatanga qaytib keladi, unga 33 million so‘m kredit ajratilishi va o‘z ishini yo‘lga qo‘yishiga ko‘maklashiladi. Hozir bu ayol qandolat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorga aylangan.

Asiyaning yordami bilan Nusratilla Nig‘monxo‘jayevga mebel ishlab chiqarish uchun 33 million, Nigora Dadayevaga tikuvchilikni yo‘lga qo‘yishi uchun 6 million, Dilobar Ibrohimovaga turmush o‘rtog‘i Doniyor bilan darvoza va panjaralar ishlab chiqarish uchun 33 million so‘m kredit olib berildi. Natijada mahallada qo‘shimcha 7 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

“Yuragimda hamisha sog‘inch bo‘lgan”

— Uzoq yillar oilamdan olisda — chet elda ishlab yurdim. Topgan daromadim bilan oilamni va farzandlarimni ta’minlab turgan bo‘lsam-da, hamisha yurtga, yaqinlarimga bo‘lgan sog‘inch hissi qalbimni o‘rtab kelgan, — deydi Qirguzar ko‘chasida yashovchi Doniyor Ibrohimov. — Mahallamizdagi hokim yordamchisi menga qo‘ng‘iroq qilib, farzandlarim oldiga qaytishimni, bu yerda ham pul topish uchun sharoitlar yaratib berishga ko‘maklashishini aytganida, to‘g‘risi, ishonmadim. Ammo bugun bu qizga rahmat aytaman. Yosh bo‘lsa ham mahalla ahli uchun joni halak. Men ham 33 million so‘m kredit olib, o‘zim yaxshi ko‘rgan sohada ish boshladim. Turli darvoza va panjaralar yasayman. Eng asosiysi, oilam va farzandlarim bag‘ridaman, xotirjamman.

Mamlakatimizda kechayotgan islohotlar samarasi, o‘zgarishlar aholi kayfiyati, avvalo, mahallalarda ana shunday aks etmoqda.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir» degan hikmatli so‘zlari zamirida katta ma’no bor. Bu so‘zlar o‘z davrida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham shunchalik ahamiyatli.

O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

SUV TA’MINOTI UCHUN AJRATILAYOTGAN MABLAG‘ OLTI KARRA OSHDI

Samarasi-chi?

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

— Ichimlik suv muammosi ko‘p yillardan buyon aholini qiynab kelardi, — deydi Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi “Katta Qarshi” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Oysara Xalilova. — Yaqin-yaqingacha uzoq masofadan suv tashib ichganmiz. Albatta, bu aholi, ayniqsa, ayollarning turmushini og‘irlashtirardi. Qolaversa, ichimlik suv sifati talabga javob bermasligi inson salomatligiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazardi. Oxirgi yillarda bosqichma-bosqich toza suv tarmoqlari tortildi va qariyb uch mingga yaqin aholi bugungi kunda xonadonigacha yetkazilgan markazlashgan tarmoqdan toza suv ichyapti. Suv yetib bormagan bitta ko‘chamiz bor, unga ham bu yil tarmoq tortish rejada turibdi.

Mahalla ahli tomorqa imkoniyatidan foydalanib karam, piyoz va boshqa ekinlar yetishtiradi. Tog‘ etagida joylashgan qishloq ahlining ekologik toza mahsulotlari nafaqat mamlakatimiz, balki qo‘shni davlatlar bozorlarida ham xaridorgir. Qishloq hayotida ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, tabiiyki, aholining tadbirkorlik faoliyati rivojida ham yangi istiqbollarni ochmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida bu yo‘nalishdagi ishlarni izchil davom ettirish va barcha aholi punktlarini toza ichimlik suv va oqova xizmatlari bilan kafolatli ta’minlashning moliyaviy mexanizmlarini joriy qilish vazifasi belgilangan.

“O‘zsuvta’minot” aksiyadorlik jamiyati ma’lumotlariga ko‘ra, birgina 2023-yilda bu yo‘nalishda barcha dasturlar doirasida budjetdan ajratilgan 5,4 trillion so‘m hisobiga 11 ming 207 kilometr ichimlik va 593 kilometr oqova suv tarmog‘i tortildi, 1740 ta ichimlik suv hamda oqova suv inshooti qurildi va rekonstruksiya qilindi.

2023-yilgi investitsiya dasturiga ko‘ra, 22 loyiha doirasida jami 225,5 million dollar o‘zlashtirildi. O‘zlashtirilgan mablag‘ hisobidan 425 kilometr ichimlik va 100 kilometr oqova suv tarmog‘i qurildi. 10 ta suv taqsimlash inshooti va 19 ta oqova suv nasos stansiyasida qurilish ishlari yakunlandi. 75 ta mahallada istiqomat qiluvchi 250 ming aholi markazlashgan toza ichimlik suv hamda 24 ta mahalladagi 73 ming aholi oqova suv xizmatlari bilan ta’minlandi.

O‘tgan yilgi barcha loyihalar natijasida 2 mingdan ortiq mahalladagi 1 million 100 ming aholi ilk bor ichimlik suv bilan ta’minlanib, 2,5 million aholining ta’minoti yaxshilandi. Aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasi 74,4 foizdan 77,2 foizga yetkazildi.

— Avvallari yurtimizning janubiy mintaqasida odamlarning suvga ehtiyoji daryolardan suv olish orqali ta’minlangan bo‘lsa, bugungi kunda xalqaro moliya institutlari ishtirokida bir necha yirik loyiha amalga oshirilyapti, — deydi “O‘zsuvta’minot” aksiyadorlik jamiyati boshqarma boshlig‘i Asiljon Muhiddinov. — “To‘palang suv ombori manbalari hisobiga ichimlik suv ta’minotini yaxshilash” loyihasi shulardan biri. Qiymati 2 trillion 600 milliard so‘mdan ko‘proqni tashkil etadigan loyiha doirasida quvvati bir kecha-kunduzda 200 ming metr kub bo‘lgan ichimlik suv tozalash inshooti qurilib, 358 kilometr magistral suv tarmog‘i tortilmoqda. Bugungi kunda Sariosiyo, Denov va Sho‘rchi tumanlarining 123 ta mahallasida yashovchi 581,2 ming aholining ichimlik suv ta’minoti va sifati tubdan yaxshilandi. Loyiha to‘liq yakunlangach, viloyatning 11 tumanida yashovchi aholining suv ta’minotida muammo bo‘lmaydi.

> 2024-yilda budjetdan ajratiladigan 1,3 trillion so‘m hisobidan 79 loyiha doirasida 200 dan ortiq mahallada 1,1 ming kilometr tarmoq va 64 ta inshoot quriladi. Ichimlik suv ta’minoti og‘ir bo‘lgan 50 ta mahalla ijtimoiy buyurtma asosida suv bilan ta’minlanadi.

Shu bilan birga, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida 60,4 million dollar qiymatga teng “Oqtosh va Poshxo‘rt yer osti suv manbalaridan suv quvuri qurish yo‘li bilan Surxondaryo viloyati Muzrabot tumanining suv ta’minotini yaxshilash” loyihasi ham viloyat aholisi uchun katta qulaylik yaratadi.

Qashqadaryo viloyati aholisining obihayotga ehtiyojini ta’minlash uchun xorijiy moliya institutlari ishtirokida “Koson va Muborak tumanlari markazlari hamda Kitob-Shahrisabz yer osti suv konidan suv olish quvurlariga yaqin bo‘lgan qishloq aholi punktlarining suv ta’minoti tizimini rekonstruksiya qilish” hamda “Shahrisabz shahri va Kitob tumani markazida oqova suv tizimlarini rekonstruksiya qilish va qurish” loyihalari amalga oshirilyapti. Bunda yer osti quduqlari quvvatini oshirish hisobiga toza ichimlik suv ta’minotida ijobiy o‘zgarishlar bo‘lyapti.

“Zarafshon daryosi suvidan foydalanish hisobiga Jizzax viloyatining ichimlik suv ta’minotini yaxshilash” loyihasi doirasida Baxmal, G‘allaorol, Paxtakor, Do‘stlik, Mirzacho‘l tumanlari va Jizzax shahri ahlining ta’minoti yaxshilandi.

Qurg‘oqchil mintaqada joylashgan Buxoro viloyati Qorako‘l tumani aholisi uchun ham ichimlik suv tanqisligi jiddiy muammo edi. Jahon banki ishtirokida Olot va Qorako‘l tumanlari ichimlik suv ta’minotini yaxshilash bo‘yicha loyiha amalga oshirilganiga hali ko‘p bo‘lmadi. Natijada ushbu tumanlarning chekka qishloqlari aholisi ham toza obihayotdan bahramand bo‘lmoqda.

Qorako‘l tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i Valijon Orziyevning aytishicha, toza ichimlik suv sabab oxirgi ikki yilda o‘tkir diareya uch barobar kamaydi. Ilgari o‘tkir yuqumli kasallik alomatlari ahyon-ahyonda uchrab turardi, oxirgi yillarda qayd etilmayapti. Ichterlama, paratif umuman ro‘yxatga olinmadi. Yuqish omili ko‘pincha suvga bog‘liq bo‘lgan virusli gepatitning E turi bartaraf etildi, buyrak-tosh kasalliklari kamaydi.

— Toza suv insonning sog‘lom va uzoq umr kechirishini ta’minlaydigan muhim vositadir, — deydi Valijon Orziyev. — Shu bois, shifokorlar sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishda har bir inson belgilangan miqdorda toza suv iste’mol qilishi lozimligini uqtiradi. Buning uchun bugun tumanimiz aholisi qulay imkoniyatga ega bo‘lgani quvonarli. Endi chekka qishloq aholisi ham xonadonidagi jo‘mrakni burab, o‘z ehtiyoji uchun zarur miqdorda toza suvdan bahramand bo‘lmoqda. Bu xalqimizga toza suv yetkazish orqali baxsh etilgan sog‘lom hayot nashidasidir.

Yaqinda bu yo‘nalishda Toshkent tumanida ham yangi loyiha amalga oshirildi. Bu yerda zamonaviy suv ko‘tarish inshootlari foydalanishga topshirildi. Ular hududda aholining ichimlik suv ta’minotini oshirish, suv muammosi va isrof bo‘lishini bartaraf etishga xizmat qiladi.

— Xayrli ishlardan barcha xursand bo‘ldi, — deydi “O‘zsuvta’minot” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi vazifasini bajaruvchi Dilshod Azimov. — Ilgari Toshkent tumani aholisining 78,9 foizi yoki 18 ming 304 ta xonadon jadval asosida ichimlik suv bilan ta’minlangan. Loyiha ishga tushgach, bu ko‘rsatkich 92 foizga yetdi yoki 21 ming 345 ta xonadon doimiy ichimlik suv bilan ta’minlandi.

Tumandagi Qirariq mahallasi o‘tgan asrning 80-yillarida tortilgan quvurlar orqali jadval asosida toza ichimlik suv bilan ta’minlangan. Biroq 4 ta ko‘chaga suv quvurlari umuman kirmagan. Chuvalachi mahallasida esa aholi ko‘p yillardan buyon quduqdan suv ichib kelgan. Aslida, bunaqa misollar ko‘p. Bunyodkorlik ishlari tufayli bu joylarda endi aholi suv ta’minotidan qiynalmaydi.

Prezidentimizning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonida aholining ichimlik suv ta’minoti darajasini yanada oshirish vazifasi belgilangan. Xususan, 2024-yilda budjetdan ajratiladigan 1,3 trillion so‘m hisobidan 79 loyiha doirasida 200 dan ortiq mahallada 1,1 ming kilometr tarmoq va 64 ta inshoot quriladi. Ichimlik suv ta’minoti og‘ir bo‘lgan 50 ta mahalla ijtimoiy buyurtma asosida suv bilan ta’minlanadi.

Umuman olganda, aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasini 81 foizga yetkazish, 1,3 million aholini toza ichimlik suv bilan ta’minlash, 3 million aholining suv ta’minotini yaxshilash ko‘zda tutilgan.

“O‘zsuvta’minot” AJdan ma’lum qilishlaricha, joriy yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga asosan, budjet mablag‘lari hisobiga 1,3 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmog‘i hamda 75 ta inshootda qurilish-ta’mirlash ishlari bajariladi. Jumladan, ichimlik suv qamrovi darajasi past bo‘lgan 30 ta tumanda 459 kilometr tarmoq hamda 24 ta ichimlik va oqova suv inshooti quriladi.

Joriy yilda xalqaro moliya institutlarining 21 ta loyihasi bo‘yicha jami 308,2 million dollar o‘zlashtiriladi. Buning hisobiga 452 kilometr ichimlik va 110 kilometr oqova suv tarmog‘i, 8 ta suv taqsimlash inshooti va 1 ta oqova suv nasos stansiyasini qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Shuningdek, joriy yilda umumiy qiymati 256,7 million dollar bo‘lgan 4 ta loyiha yakuniga yetkazilmoqda. Jumladan, Osiyo taraqqiyot bankining 79,5 million dollar mablag‘i hisobidan “Jizzax shahri oqova suv tizimini rekonstruksiya qilish”, Islom taraqqiyot bankining 57,5 million dollar mablag‘i hisobidan “Sirdaryo viloyati Guliston, Shirin va Yangiyer shaharlarining kanalizatsiya tizimini rekonstruksiya qilish va kengaytirish” loyihasi foydalanishga topshiriladi.

Saudiya taraqqiyot jamg‘armasi va OPEK xalqaro taraqqiyot jamg‘armasining 29,7 million dollar mablag‘i hisobidan “Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanida ichimlik suv ta’minotini yaxshilash”, Jahon bankining 90 million dollar mablag‘i hisobidan “Buxoro va Samarqand shaharlarida tozalash inshootlari va kanalizatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish (2-faza)” loyihalari to‘liq ishga tushiriladi.

Natijada 2024-yilda respublika aholisining markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasi 81 foizga yetkaziladi.

Bu raqamlar ortida millionlab insonlar taqdiri yotibdi. Endi suv tarmog‘i tortilgan olis qishloqlar ahli, ayniqsa, ayollar va bolalar bir chelak suv izlab ariq yoki kanal yoqalab yurmaydi. Xonadoni ostonasiga yetkazilgan suv tarmog‘i jo‘mragini burab, toza obihayotdan tashnaligini qondiradi. Qolaversa, suv kelgan xonadonga yangicha hayot shukuhi ham yetib boradi.

... Endi hovuz bo‘yida bunday suhbatlar bo‘lmas, ehtimol. Balki hozir bu gurunglar mahallalarda barpo etilgan kutubxonalar, madaniyat markazlarida davom etayotgandir. Lekin biz aytmoqchi bo‘lganimiz boshqa gap: endi uzoq-uzoqlardan chelaklab suv, obihayotga qo‘shib bilib-bilmasdan kasallik qo‘zg‘atuvchi bakteriyalar tashish bo‘lmaydi. Demak, sog‘lig‘imizga suv bilan bog‘liq xavf, opa-singillarimiz sarsonligi yo‘q. E’tiborlisi, aholining ichimlik suv ta’minotini yaxshilash borasidagi ko‘lamli sa’y-harakatlar natijasida yaqin vaqtlarda bunday qulaylikdan barcha yurtdoshlarimiz birdek bahramand bo‘ladi.

“Yashil makon”

OROLBO‘YIGA YANGI HAYOT KIRIB KELDI

Boshlanishi 1-betda

Hozir Orolbo‘yida yangi hayot boshlangan. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida inson qadami tegmagan bu joylarda saksovulzorlar barpo etilmoqda.

— Orol dengizining qurigan tubida har yili 100 ming gektar “yashil qoplama” yaratilmoqda, — deydi Mo‘ynoq davlat o‘rmon xo‘jaligi direktori Farhod Avezov. — 2024-yil qish-bahor mavsumida 109 ming 443 gektar maydonda urug‘dan, 3059 gektar yerda ko‘chatdan o‘rmon barpo etildi. Joriy bahor va kuz mavsumlarida ko‘kalamzorlashtirish, manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlari hamda qalamchalari ekish tadbirlarini tizimli va uyushqoqlikda tashkil etish maqsadida 14 ta ko‘chatchilik korxonasi bilan shartnoma tuzdik.

Orol dengizi muammosi bilan o‘tgan asrning 80-yillaridan buyon shug‘ullanib kelayotgan akademik Zinoviy Noviskiyning aytishicha, dengiz tubidagi qurigan yer maydoni 6 million gektarni tashkil etadi. Buning 3,2 million gektari O‘zbekiston hududiga to‘g‘ri keladi. Qolgan qismi Qozog‘istonga tegishli. Dengiz tubidan yiliga 150 million tonna tuzli chang-to‘zon havoga ko‘tarilib, 1000 kilometrgacha uchib boradi va tuzli qor va yomg‘ir bo‘lib yog‘adi.

— Ushbu ekologik muammoning ikkita yechimi bor, — deydi Zinoviy Noviskiy. — Birinchisi, dengizni oldingi holatiga keltiradigan suv bilan to‘ldirish kerak. Ammo buning imkoni yo‘q. O‘tgan asrning 80-yillarida Amudaryo va Sirdaryodan dengizga suv kelishi to‘xtagan. Ikkinchisi, “yashil qoplamalar”. Bu yil sinovli bo‘ladi. Iqlimshunoslar ma’lumotiga ko‘ra, mintaqada juda katta qurg‘oqchilik yuz berishi mumkin.

Oldinlari Orol dengizi tubi o‘lik joy hisoblanardi. Bugun bu yerda chorvachilik va asalarichilik bilan shug‘ullanish, yovvoyi hayvon ko‘paytirish mumkin. Shuningdek, dorivor o‘simliklardan chistanxe plantatsiyalari tashkil etsa bo‘ladi.

Natija yaxshi tomonga o‘zgaryapti. Mehnat besamar ketmadi. O‘rmonzorlar kengayishi bilan hayvonot dunyosi “tirila” boshladi. Hozir yashil hududlarda quyon, qashqir, tulki, shoqol singari hayvonlarni uchratish mumkin. Eng asosiysi, chorva uchun juda qulay yaylovlar yaratilmoqda. Buning natijasida aholi bandligi ta’minlanadi.

“Orolga o‘z hayotini baxshida qilgan inson sifatida ayta olamanki, bu yerlarning kelajagi porloq”, deydi Zinoviy Noviskiy.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-yanvardagi “Orol dengizining suvi qurigan tubida va Orolbo‘yi hududlarida “yashil qoplamalar” — himoya o‘rmonzorlarini barpo etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida bu yerda bajarilishi lozim bo‘lgan katta hajmdagi ishlar belgilab berilgan.

— Mazkur hujjat ijrosini ta’minlash maqsadida joriy yilda 100 ming gektar maydonda “yashil qoplamalar” barpo etish rejalashtirilgan. Ushbu mavsumda o‘rmon-meliorativ tadbirlari uchun o‘rmon xo‘jaliklaridan 1000 kishi, 30 ta traktor, 1 ta samolyot, 4 ta deltaplan jalb qilindi, — deydi Qoraqalpog‘iston o‘rmon xo‘jaligi qo‘mitasi raisi Oybek Aminov.

Mutaxassislarning bildirishicha, dengizning qurigan tubidagi 1 gektar joydan 5 tonna zararli tuzlar atmosferaga ko‘tarilib, atrofga va inson salomatligiga ta’sir ko‘rsatadi. Bir dona saksovul esa 10 tonnacha qumni ushlab qoladi. Demak, dengiz tubida ko‘tarilayotgan chang-to‘zonni to‘xtatishda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi amaliy ishlar muhim ahamiyatga ega.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘zbekistonning 14 ta hududidagi 165 ta tuman bo‘yicha 7 mingdan ziyod uy xo‘jaligida shu yo‘nalishdagi xarajatlar hamda qurilish va sanoat tarmoqlari o‘rganilib, tanlanma statistika kuzatuvi natijalarini mantiqiy tahlil qilish, ma’lumotlarni umumlashtirish hamda umumiy to‘plamga yoyish yuzasidan 2023-yilning oktabr, dekabr va mart oylarida Xalqaro valyuta jamg‘armasi eksperti ishtirokida onlayn seminarlar o‘tkazildi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 24-aprel, 78-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Statistika

KUZATILMAYDIGAN IQTISODIYOTNI BAHOLASH MEZONLARI

Yashirin iqtisodiy faoliyat barcha davlatlarda kuzatiladi. Uning umumiy hajmi va tarmoqlardagi ulushi turlicha bo‘ladi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni shakllantirishda yashirin iqtisodiy faoliyatning hisobga olinmasligi va ma’lumotlar qamrovi to‘liqligi ta’minlanmagani statistik ma’lumotlardan foydalanuvchilar uchun qator noqulayliklar keltirib chiqaradi. Xususan, davlat boshqaruvi organlari uchun iqtisodiyotni rejalashtirish, tarkibiy islohotlarni joriy qilish, xalqaro taqqoslashlarni amalga oshirish, aholi farovonligini aniqlash va ilmiy tadqiqotlar olib borishda muayyan nomutanosibliklar yuzaga keladi.

Abrorali MAMAJONOV,
Statistika agentligi Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasi boshlig‘i

Yashirin iqtisodiyot davlat byudjetiga tushumlarni kamaytiradi, biznes subyektlar o‘rtasida erkin raqobat muhitini buzadi, hukumatning iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar hamda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shu sababli jahon miqyosida, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Unga qarshi kurashish, eng avvalo, bunday faoliyat hajmini butun iqtisodiyot va uning tarmoqlari bo‘yicha imkon qadar aniqroq baholash zaruratini keltirib chiqaradi.

Prezidentimiz rahbarligida 2020-yil 27-iyul kuni yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilish, davlatimiz rahbarining 2020-yil 3-avgustdagi qaroriga asosan tasdiqlangan 2020-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”da yashirin iqtisodiyotni baholash, ko‘lamini qisqartirish vazifalari belgilanishi bu masala nechog‘liq muhim ekanini ko‘rsatadi.

BMT, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, Yevrostat kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar ishlab chiqqan “Milliy hisoblar tizimi — 2008” xalqaro standartida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashda ishlab chiqarish chegaralari doirasidagi barcha iqtisodiy faoliyat turlari, ularning ro‘yxatdan o‘tgan yoki o‘tmagani, qonuniy yoki noqonuniyligi, ma’lumotlar manbai mavjud yoki mavjud emasligidan qat’i nazar, qamrab olinishi lozimligi belgilangan.

Bunda statistika bo‘yicha xalqaro amaliyotda “kuzatilmaydigan iqtisodiyot” atamasidan foydalaniladi hamda u iqtisodchi, siyosatchi va hukumat vakillari tomonidan qo‘llaniladigan “xufiyona iqtisodiyot” yoki “yashirin iqtisodiyot” tushunchalariga mos keladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash bo‘yicha qo‘llanmasida bu tushuncha doimiy statistik kuzatuvlarda to‘liq yoki qisman qamrab olinmagan, shuningdek, statistik ko‘rsatkichlarda aks ettirishda bilvosita usullar orqali baholanadigan iqtisodiy faoliyat sifatida ta’riflanadi. Kuzatilmaydigan iqtisodiyot norasmiy, yashirin va noqonuniy faoliyat turlari bo‘yicha guruhlarga ajratiladi.

Norasmiy iqtisodiyot jismoniy shaxslarning daromad olish maqsadida (bozor uchun) belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tmagan holda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish hamda uy xo‘jaliklarining o‘z iste’moli uchun mahsulotlar tayyorlash faoliyatini qamrab oladi. Yashirin iqtisodiyot esa soliqqa tortilmaslik yoki qonunchilikda belgilangan talablarga (sanitariya-gigiyena, sertifikatlash va mehnat sharoitlari bo‘yicha talablar, kichik korxonalarga xodimlar soni bo‘yicha belgilangan me’yorlar va boshqalar) rioya qilmaslik maqsadida statistika hisobotlarida faoliyat ko‘rsatkichlarini to‘liq yoki qisman yashirib ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ishini o‘zida ifoda etadi. Yashirin iqtisodiyotga belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tmagan holda ish yurituvchi korxonalar faoliyati ham kiritiladi.

Noqonuniy faoliyatning iqtisodiyotdagi ulushi, jumladan, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar shakllanishiga ta’siri ahamiyatsiz darajada kichik bo‘lishi sababli xalqaro tajribada uni statistik baholash amalga oshirilmaydi.



MHT uslubiyoti bo‘yicha kuzatilmaydigan iqtisodiyotning tarkibiy qismlari

Xalqaro statistika amaliyotida norasmiy va yashirin iqtisodiy faoliyat hajmlarini statistik baholash bevosita usulni qo‘llash orqali iqtisodiyot subyektlari bilan o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar natijalari yoki ularga oid ma’muriy ma’lumotlar asosidagi hisob-kitob va tahlil etish, bilvosita yo‘nalishda esa iqtisodiyot subyektlari faoliyatini ifodalovchi ma’lumotlarga tayangan holda hisob-kitob va tahlil usullari (mehnat sarfiga asoslangan bandlik, resurslar, tovarlar oqimi va boshqa usullar) yordamida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, xalqaro tajribada yashirin iqtisodiyotni baholashda ekonometrik modellashtirish usullaridan ham foydalaniladi. Ulardan eng keng tarqalgani MIMIC (Multiple Indicators Multiple Cases) modelidir.

Amaliyotda qo‘llaniladigan usullar ko‘pligi, turlichaligi, o‘ziga xosligi yashirin iqtisodiyot hajmini baholashda yagona umumiy uslubiyat mavjud emasligidan dalolat beradi. Shu sababli mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, turli usullarni umumlashtirgan holda foydalanish samarali hisoblanadi.

Bevosita iqtisodiyot subyektlari bilan o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar usuli xalqaro statistika amaliyotida eng keng tarqalgan yondashuvlardan biri bo‘lib, kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmini to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘rganish imkonini beradi. Mazkur usul orqali aniqlangan ma’lumotlar hamda savdo aylanmasi va pulli xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha rasmiy statistika hisobotlari ma’lumotlari o‘rtasidagi tafovutlar asosida ushbu tarmoqlarda kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmini baholash mumkin.

Bandlik usulida tarmoqlar bo‘yicha bu boradagi umumiy ko‘rsatkichlar uy xo‘jaliklari bilan o‘tkaziladigan maxsus kuzatuvlar orqali shakllantiriladi. So‘ngra tarmoqlar kesimida aniqlangan bandlar soni tegishli tarmoq bo‘yicha rasmiy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmiga ko‘paytirish orqali yalpi ishlab chiqarish hajmi hisoblab topiladi. Undan rasmiy ko‘rsatkichlar ayrilib, kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi aniqlanadi.

Soliq tekshiruvi natijalaridan foydalanish usuli doirasida dastlab ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar faoliyatini tekshiruvdan o‘tkazish yakuni bo‘yicha haqiqiy faoliyat ko‘rsatkichlarini yashirgan subyektlar ulushi (tarmoqlar kesimida, korxona turi bo‘yicha) aniqlab olinadi. So‘ngra sohalar kesimida va korxona turi bo‘yicha aniqlangan holatlar yuzasidan soliqlarni qo‘shimcha hisoblash darajasi chiqariladi.

Haqiqiy ko‘rsatkichlarni yashirgan subyektlar ulushi va soliqlarni qo‘shimcha hisoblash darajasi bo‘yicha ko‘rsatkichlarni tarmoqlar bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan jami korxonalar soniga va ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga qo‘llab (ekstrapolyatsiyalash), yashirin faoliyat hajmi aniqlanadi.

Iste’mol usuli doirasida so‘rov o‘tkazish orqali uy xo‘jaliklarining oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlar hamda xizmatlarga xarajatlari kuzatiladi. Bunda odatda iste’molchining o‘z xarajatlari haqidagi ma’lumotlarni yashirish ehtimoli pastligi natijalarning haqqoniylik darajasi yuqori bo‘lishiga xizmat qiladi.

Aholining jami xarajatlari to‘g‘risida mazkur usul orqali aniqlangan ma’lumotlar hamda savdo aylanmasi va pulli xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha rasmiy statistika hisobotlari ma’lumotlari o‘rtasidagi tafovutlar asosida ushbu tarmoqlarda kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmini baholash mumkin.

Bugungi kunda Statistika agentligi tomonidan kuzatilmaydigan iqtisodiyotning norasmiy iqtisodiyot qismini statistik baholash amaliyoti joriy qilingan bo‘lib, bu jarayon uy xo‘jaliklari va jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish faoliyatini o‘rganish bo‘yicha tanlanma kuzatuvlar natijalari asosida amalga oshiriladi. Norasmiy iqtisodiyotni statistik baholashda ma’muriy ma’lumotlardan, jumladan, Davlat soliq qo‘mitasi (yakka tartibdagi tadbirkorlar soni va foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi turar joylar), Ichki ishlar vazirligi (jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari), Transport vazirligi (tashish faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega yakka tartibdagi tadbirkorlar soni) ma’lumotlaridan keng foydalaniladi.

Amalda norasmiy iqtisodiyotni statistik baholash natijalari yalpi ichki mahsulot, yalpi hududiy mahsulot, tarmoqlar bo‘yicha ishlab chiqarish hajmlari va boshqa ko‘rsatkichlarda aks ettirib kelinmoqda. 2023-yil yakunlari bo‘yicha hisob-kitoblarga ko‘ra, norasmiy iqtisodiyot, ya’ni uy xo‘jaliklari va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) faoliyatining YIMdagi ulushi 27,9 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2017-2023-yillarda 38,6 foizdan 27,9 foizgacha kamaygan.



YIMda norasmiy iqtisodiyotning ulushi dinamikasi
(foiz hisobida)

Tarmoqlar kesimida norasmiy iqtisodiyot ulushi qishloq xo‘jaligida eng yuqori bo‘lib, 2023-yilda 63,4 foizni tashkil qildi. Mazkur ko‘rsatkich xizmatlar sohasida 27,2 foiz, qurilish sohasida 20,5 foiz hamda sanoatda 3,7 foizga teng bo‘lgan.

Kuzatilayotgan davrda norasmiy sektorda jami 297 trillion 279,1 milliard so‘m qo‘shilgan qiymat yaratilgan, uning 52,3 foizi qishloq xo‘jaligi, 40,1 foizi xizmatlar, 3,3 foizi sanoat, 4,3 foizi qurilish tarmog‘i hissasiga to‘g‘ri keladi.

Statistika agentligi tomonidan kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmini statistik baholash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2019-2022-yillarda yuridik va jismoniy shaxslarning yashirin va norasmiy faoliyatini o‘rganish bo‘yicha Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi ekspertlari bilan hamkorlikda statistik tadqiqotlar o‘tkazildi. Bunda:

— xalqaro tashkilotlar ekspertlari tavsiyalari asosida yuridik va jismoniy shaxslarning yashirin va norasmiy faoliyatini o‘rganish bo‘yicha maxsus so‘rovnomalar tayyorlandi;

— Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha uslubiy nizom ishlab chiqildi;

— Qashqadaryo (2020-yilning 21-avgust – 15-sentabr kunlari) va Namangan (2021-yilninr 24-may – 23-iyun hamda 26-iyul – 14-avgust kunlari) viloyatlarining barcha tymanlarida yuridik va jismoniy shaxslarning yashirin va norasmiy faoliyatini o‘rganish bo‘yicha tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi;

— Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Soliq qo‘mitasi, Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasidan tegishli ma’muriy ma’lumotlar olindi va tahlil qilindi.

2022-2024-yillarda yalpi ichki mahsulotning tarkibiy qismlarini baholashni takomillashtirish orqali uning to‘liq qamrovini ta’minlash hamda kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash uslubiyoti va amaliyotini xalqaro tavsiyalarga muvofiqlashtirish borasida qator ishlar qilindi. Xususan, norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi va uning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini baholashni takomillashtirish maqsadida Xalqaro valyuta jamg‘armasining texnik ko‘mak missiyalari jalb etildi. Xalqaro valyuta jamg‘armasi tavsiyalari hamda Kanada va Gruziya tajribasi asosida uy xo‘jaliklarining transport, yashash va ovqatlanish, madaniyat, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlariga xarajatlarini o‘rganish bo‘yicha tanlanma statistika kuzatuvlari so‘rovnomalari ishlab chiqildi.

O‘zbekistonning 14 ta hududidagi 165 ta tuman bo‘yicha 7 mingdan ziyod uy xo‘jaligida shu yo‘nalishdagi xarajatlar hamda qurilish va sanoat tarmoqlari o‘rganilib, tanlanma statistika kuzatuvi natijalarini mantiqiy tahlil qilish, ma’lumotlarni umumlashtirish hamda umumiy to‘plamga yoyish yuzasidan 2023-yilning oktabr, dekabr va mart oylarida Xalqaro valyuta jamg‘armasi eksperti ishtirokida onlayn seminarlar o‘tkazildi. Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash ma’lumotlar manbai sifatida foydalanish uchun Soliq qo‘mitasi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligidan ma’muriy ma’lumotlar olindi va xorijiy tajribalar asosida tahlil qilindi.

Bugungi kunda Statistika agentligi tomonidan norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash jarayonida tanlanma statistika kuzatuvlar orqali yig‘ilgan ma’lumotlar asosida 2017-2023-yillar uchun iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar kesimida norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi va uning YIMga ta’sirini baholash, Xalqaro valyuta jamg‘armasining texnik ko‘mak missiyasini jalb etgan holda norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi, uning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri bo‘yicha hisob-kitoblar natijalarini muhokama qilish alohida o‘rin tutadi.

O‘tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalari asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda aks ettirilishi yalpi ichki mahsulot va uning tarkibiy qismlarini baholashni takomillashtirishga hamda bu orqali uning to‘liq qamrovini ta’minlashga xizmat qiladi.

Sanoat

BILIM, TAJRIBA VA HARAKAT UYG‘UNLASHGAN JOY

Bundan bir necha yil avval Navoiy shahrida non mahsulotlari ishlab chiqaruvchi “Favorit lyuks servis” korxonasini ochgan yosh tadbirkor yetarlicha sharoit va bino qurish uchun yer yo‘qligi tufayli faoliyatini kengaytirishga imkon topmagandi. Hududlarda iqtisodiy va kichik sanoat zonalari tashkil etilishi faoliyatini rivojlantirolmay sarson bu kabi tadbirkorlar uchun ayni muddao bo‘ldi.

Ayniqsa, Prezidentimizning 2022-yil 6-iyundagi “Hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish va ularni muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Ushbu qarorda hududlarda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun sanoat maydonlari tashkil qilish va ularda tadbirkorlarning to‘liq, uzluksiz faoliyat yuritishini ta’minlash, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi yaratish, investorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilab berildi.

Navoiy shahridagi 1-kichik sanoat zonasida ish boshlagan “Favorit lyuks servis” korxonasi ham ana shunday imkoniyatlardan foydalanib, 100 nafarga yaqin fuqaroni ish bilan band etdi. Tadbirkorning o‘z mablag‘i hisobidan loyiha-smeta, infratuzilmaga ulanish, logistika, obodonlashtirish, qurilish-montaj ishlari, asbob-uskunalar o‘rnatish uchun 20 milliard so‘m investitsiya kiritilgan bo‘lib, bugungi kunda korxona 200 xil non, makaron, qandolat va shirinliklar, sut va sutli pechenye mahsulotlari ishlab chiqarmoqda. Qolaversa, sanoat zonalaridagi korxonalarga qator imtiyozlar berilgani faoliyatni yanada rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Hozir Navoiy viloyatida 28 ta kichik va yoshlar sanoat hamda tadbirkorlik zonasi tashkil etilgan. Ularga qariyb 190 gektar yer ajratilib, 57,5 gektari infratuzilma obyektlari, 132 gektardan ortiqrog‘i tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish uchun taqsimlandi. Prezident qarori asosida ushbu sanoat zonalarida tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida 107 milliard so‘mlik tashqi muhandislik tarmoqlari, ya’ni elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va oqova suv ta’minoti, ichki avtomobil yo‘llari qurib berildi.

— Viloyatda kichik va yoshlar sanoat zonalarida qiymati 550 milliard so‘mlik 300 dan ziyod loyiha ishga tushirildi. Buning natijasida 2 mingdan ziyod yangi ish o‘rni ochildi. Shuningdek, ushbu sanoat zonalarida 260 dan ortiq investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda, — deydi Navoiy viloyati kichik sanoat zonalari direksiyasi yetakchi mutaxassisi Sardor Ibragimov.

Navoiy shahridagi 2-kichik sanoat zonasidagi “Navpromlitmash” korxonasiga qarashli sex ham ayni vaqtda barqaror faoliyat yuritmoqda. 70 xil sanoat mahsulotlari, shuningdek, ayrim turdagi xorijiy avtomobillar uchun havo va moy filtrlari ishlab chiqariladi. Tadbirkorga 10 milliard 400 million so‘m investitsiya kiritish sharti bilan kichik sanoat zonasidan yer ajratilgan. Natijada u xorijiy mahsulotlarni mahalliylashtirib, import hajmini qisqartirish bilan birga, 60 kishini ish bilan ta’minlagan.

Bugungi kunda tadbirkor o‘z mablag‘i hisobidan loyiha-smeta, infratuzilmaga ulanish, logistika, obodonlashtirish ishlari uchun 5 milliard, qurilish-montaj ishlari uchun 7 milliard, ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirish maqsadida Xitoydan asbob-uskunalar olib kelish uchun 8 milliard, jami 20 milliard so‘mlik investitsiya kiritdi. Sexda tog‘-kon sanoatida foydalaniladigan gigant transportlar uchun ham havo va moy filtrlari ishlab chiqariladi. Bunga mos uskunalar va qoliplar korxonaning o‘zida tayyorlanadi.

— Hozir xorijdan olib kelinadigan 200 turdan ortiq filtrni mahalliylashtirishga erishdik. Bu mahsulotlar tog‘-kon va metallurgiya sohasida foydalaniladigan transportlar uchun mo‘ljallangan. Bu jarayonda malakali texnik xodimlar va laboratoriya mutaxassislari tajribasi muhim ahamiyat kasb etmoqda, — deydi sex boshlig‘i Sardor Hamidov.

Azamat Suvonov mazkur korxonaga kelgunga qadar yirik zavodlarda malaka oshirib, katta tajribaga ega bo‘lgan muhandis-konstruktorlardan biri.

— Mahsulotlarni mahalliylashtirishda ularning eng yaxshilaridan namunalar olinadi. Shundan so‘ng har bir detal uchun qoliplar yasaladi. Laboratoriyada o‘rganilgandan keyin xulosa asosida ishlab chiqarishga tavsiya etiladi. Jarayon yakuniga qadar mahsulot sifati nazoratimizda bo‘ladi, — deydi Azamat Suvonov.

Albatta, bilim, tajriba va harakat uyg‘unlashgan joyda rivojlanish bo‘ladi. Ayniqsa, tadbirkorda uchalasi ham mujassam bo‘lsa, bu ijtimoiy va iqtisodiy o‘sish uchun mustahkam narvon vazifasini o‘taydi. Ularning qo‘llab-quvvatlanishi esa maqsad sari xotirjam, to‘siqlarsiz va ildam yurishga kafolatdir.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ta’lim taraqqiyoti

YUQORI MALAKALI O‘QITUVCHI

zakovatli avlodni voyaga yetkazadi

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga o‘tish pedagoglarni har yili malaka oshirishga jalb qilish va bunda ularning istagi, sharoitini inobatga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etishni ko‘zda tutadi. Ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirishni esa faqatgina intellektual dasturiy vositalar yordamida ta’minlash mumkin. Shuning uchun “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi ishlab chiqildi. Undan foydalangan holda 2021-yildan umumta’lim maktablari pedagog kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi amaliyotga joriy etildi.

Uzluksiz o‘qishning afzalliklari

Malaka oshirish tizimi uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga transformatsiya qilingandan so‘ng xodimlar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma davriylikka asoslangan oldingi hamda amaldagi uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimlarini qiyoslash, bu bo‘yicha xodimlar fikrlari va takliflarini aniqlashga qaratildi.

— Mazkur so‘rovnomada jami 14 ming 249, jumladan, 1544 maktab direktori, 12 ming 526 o‘qituvchi va hududiy malaka oshirish markazlarining 179 xodimi ishtirok etdi, — deydi Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti bo‘limi mudiri Elyor Alqorov. — Javoblarni ketma-ketlikda tahlil qilar ekanmiz, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi haqida umumiy fikrlar so‘ralganda, 73,4 foiz respondent pedagoglarning o‘z ustida ishlashi va malakasini muntazam oshirishi hamda ishdan ajralmagan holda, yil davomida, qulay vaqtda ta’lim olish imkoniyatini beradi, degani.

Malaka oshirish o‘quv mashg‘ulotlarining qaysi shaklida ishtirok etish afzalligi haqida so‘ralganda, 78 foiz ishtirokchi har yilgi (rahbarlar uchun 30 soat, o‘qituvchilar uchun 36 soat) malaka oshirish kurslarining qulayligini ta’kidlagan.

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasida tashkil etilgan kurslarning mazmuni yuzasidan 66,7 foiz respondent ular ta’lim oluvchilarni kasbiy rivojlantirishga xizmat qilishi va joylashtirilgan kontentlar zamon talablari asosida yaratilganini bildirgan.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijasi bo‘yicha ishtirokchilarning 80,4 foizi yangi tizim o‘qituvchilarning o‘z ustida muntazam ishlash ko‘nikmasini rivojlantirishi, yil davomida va qulay vaqtda, ish faoliyatidan ajralmagan holda ta’lim olish imkoniyati mavjudligini e’tirof etgan.

— 2023-yil aprelda Toshkent viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazida bir hafta davomida oflayn malaka oshirdim, — deydi Yangiyo‘l tumanidagi 6-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi Gulshan Ro‘ziyeva. — Nafaqat mutaxassisligim bo‘lgan kimyo, balki biologiya, pedagogika kabi fanlar bo‘yicha interfaol darslar, mashg‘ulotlar biz uchun yangilik bo‘ldi. O‘z ustimizda ishladik. Yangilik yaratish, dars jarayonini o‘quvchilar shuuriga yetib boradigan darajada qiziqarli tashkil etish borasida ko‘p ma’lumotlarga, malakaga ega bo‘ldik. Toza havoda, tabiat qo‘ynida o‘tkazilgan amaliyot ta’limning eng ilg‘or usullarini yaxshiroq tushunishimizga yordam berdi. Ayniqsa, kimyo fani bo‘yicha asfaltga chizilgan chizmalar, ishlangan tenglamalar noodatiy edi. O‘rganganlarimni ish jarayonida qo‘llaganimda, bolalarda juda katta qiziqish uyg‘ondi.

> **Yana bir yangilik. “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi ishga tushirilishi bilan foydalanuvchining ish faoliyatida uzilish bo‘lmaydi. Xodim yashash va ishlash joyidan bir oyga ajralishiga hojat qolmaydi. Mustaqil ta’lim shaklida “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasidan foydalangan holda malaka oshirishda o‘qish muddatlari va sur’atlarini xodimning o‘zi belgilaydi.**

Bugungi o‘quvchi diqqatini darsga qaratish, mavzuni oson o‘zlashtirishi uchun qalbiga, ongiga yo‘l topish mushkul. Ularning xayolini gadjetlar band etgan davrda favqulodda yangilik yoki noodatiy uslub bilangina hayratga solish mumkin. Malaka oshirish bu borada pedagoglarga ko‘makchi bo‘la oladi.

Tizim o‘qituvchilarga qanday qulayliklar taqdim etyapti?

Davriylikka asoslangan malaka oshirish tizimida o‘qituvchilar bir oy davomida ish joyidan, oilasidan uzilgan holda hududlarda joylashgan malaka oshirish institutlarida o‘qigan bo‘lsa, yangi tartib bo‘yicha malaka oshirishning bir necha shakllari joriy etildi. Ya’ni ish joyidan ajralgan, ish joyidan ajralmagan, mustaqil ta’lim, dual ta’lim, qolaversa, muqobil malaka oshirish shakllari orqali ham ularga malaka oshirganlik to‘g‘risidagi sertifikat berish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Masalan, ish joyidan ajralmagan holda malaka oshirish mustaqil malaka oshirish shakli sifatida qabul qilinadi. “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi orqali o‘qituvchilar xohlagan joyida, xohlagan vaqtda bemalol kompyuter va mobil qurilmalarda internetdan foydalangan holda belgilangan dasturlar asosida yaratilgan kontentlarni o‘zlashtirish orqali malakasini oshiradi. Dual ta’lim ham shunga o‘xshash: malaka oshirishning muayyan, ya’ni amaliy qismini maktabida, nazariy qismini malaka oshirishga ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotlarida o‘tashi nazarda tutilgan.

Muqobil malaka oshirish shakli

O‘qituvchi kasbiy faoliyati davomida muayyan yutuqlarga erishadi. Masalan, o‘quvchilari respublika, xalqaro olimpiada g‘olibi bo‘lgan yoki o‘zi respublika ko‘rik-tanlovida ishtirok etgan, biror darslik yaratgan bo‘lishi mumkin. Davlat tomonidan ta’sis etilgan turli mukofot va unvon sohibi ham shu jumladan. Pedagog bu natijalarni maxsus platformaga kiritadi. Platforma kredit ball berish orqali malaka oshirganlik to‘g‘risidagi sertifikatni to‘g‘ridan to‘g‘ri taqdim etadi.

O‘qituvchi malaka oshirish jarayonida kasbiy faoliyati davomida erishgan natijalari rag‘batini ko‘radi.

Malaka oshirish tizimida nodavlat ta’lim sektori

Malaka oshirish tizimiga nodavlat ta’lim sektori kirib kelishi natijasida raqobat muhiti shakllanishi ta’lim sifatini yuksaltirishga sabab bo‘ldi.

— 2022-yildan boshlab nafaqat hududiy markazlar, balki xususiy sektor vakillariga ham o‘qituvchilar malakasini oshirish yo‘llari ochildi, — deydi E.Alqorov. — Bu o‘qituvchiga tanlash imkoniyatini beradi. Agar hududlardagi malaka oshirish bilan shug‘ullanuvchi markazlar o‘quv dasturlari sifati va mazmuni yoqmasa, o‘qituvchining ehtiyojini to‘la qondirib bera olmasa, u xususiy sektorga, ya’ni nodavlat ta’lim tashkilotida malakasini oshirishi mumkin. Har ikki joydan olingan sertifikati darajasi bir xil, o‘quv dasturlariga ajratilgan soatlar ham teng. Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalariga ham bu bo‘yicha imkoniyatlar yaratib berilgan. Ya’ni 29 ta oliy ta’lim muassasasiga maktab o‘qituvchilari malakasini oshirish faoliyati bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri shug‘ullanishga ruxsat berilgan.

Qars ikki qo‘ldan chiqadi

Davriylikka asoslangan avvalgi malaka oshirishda bir oy davomida 144 soat o‘qish o‘rniga har yili tashkil etiladigan bir haftalik o‘qish joriy etildi. O‘qish muddati kam. Shuning uchun hozir 36 soatli o‘quv dasturiga o‘qituvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan dars mashg‘ulotlari qo‘yilgan. Mana shundan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Aks holda u bir yilda egallashi kerak bo‘lgan bilimni yetarlicha o‘zlashtirmaydi.

— Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogga tanlash imkoniyatini yaratish stress holatlarini kamaytiradi, — deydi Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi 17-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi Dildora Jo‘rayeva. — Misol uchun, menga oila davrasi va o‘z jamoamdan ajralmagan holda malaka oshirish qulay. Bu vaqtdan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Ishlaringizni to‘g‘ri taqsimlay olish ko‘nikmalari shakllanadi.

> **Joylarda o‘qituvchilarda elektron platformadan foydalanish uchun barcha sharoitlar yetarli. Lekin ba’zi chekka hududlarda internetga ulanishdagi muammolarni istisno qila olmaymiz. Qolaversa, o‘qituvchi elektr energiyasi muammosiga duch kelishi mumkin. Bu onlayn malaka oshirish kurslarida o‘z vaqtida qatnashish imkoniyatini cheklaydi.**

Mutaxassislik fanlariga doir axborot resurslari hamda ma’lumotlar bazasini izlashga doir muammolar bartaraf etiladi. Onlayn ta’lim orqali professional professor-o‘qituvchilarning audio, video va vizual materiallari o‘zlashtiriladi. Tinglovchilar va professor-o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini baholash, bilim, malaka va ko‘nikmalarini taqqoslash imkoniyati yaratiladi.

— Afsuski, malaka oshirishni majburiyat hisoblab o‘qishga kelayotgan o‘qituvchilar ham bor, — deydi Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti bo‘limi mudiri Anvar Bahromov. — Bunga imkoniyat deb qarash kerak. “Ishlashga, saviyamni oshirishga imkoniyat berildi. Shundan unumli foydalanishim zarur. Buning uchun davlat meni darslardan ozod qilib qo‘yibdi. Malaka oshirish davrimga ham maosh yozilyapti, bu ishonchni oqlashim shart”, degan fikrda bo‘lishi lozim. Bu, bir tomondan, o‘qituvchining ijtimoiy himoyasi ham demakdir.

Elektron platformaning mobil ilovasi yaratiladi

— Maxsus platforma AKT savodxonligi yetarli darajada bo‘lmagan o‘qituvchilarimizda bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqarishi bor gap, — deydi Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi G‘olibjon Otamurodov. — Hozir bu masala deyarli bartaraf etildi. Sohada 500 mingdan ziyod o‘qituvchi ishlayotgan bo‘lsa, barchasi platformamizdan ro‘yxatdan o‘tgan. O‘z shaxsiy akkauntlariga ega. Bemalol platformaga kira oladi, fanlar bo‘yicha berilgan kontentlardan foydalanib, o‘ziga kerakli bilimni olish kompetensiyalariga ega.

Joylarda o‘qituvchilarda elektron platformadan foydalanish uchun barcha sharoitlar yetarli. Lekin ba’zi chekka hududlarda internetga ulanishdagi muammolarni istisno qila olmaymiz. Qolaversa, o‘qituvchi elektr energiyasi muammosiga duch kelishi mumkin. Bu onlayn malaka oshirish kurslarida o‘z vaqtida qatnashish imkoniyatini cheklaydi.

O‘qituvchilarning telefondan foydalanish darajasi baland bo‘lishiga qaramay, bugun platformaning mobil ilovasi mavjud emas. Hozir bu ilova ishlab chiqilyapti. Takliflar tegishli vazirliklarga taqdim etilgan.

Har bitta dasturiy vosita vaqt o‘tgan sari eskirib boradi. Agar zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borilmasa, ma’nan eskirib qolishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, qo‘shimcha qulayliklar (vazifalar) kiritish orqali platformani takomillashtirib borish muhim masala.

Platformadagi ma’lumotlar ishonchliligini ta’minlash maqsadida uni o‘zaro boshqa ichki va tashqi elektron tizimlar bilan integratsiya qilish masalalari ham ko‘zda tutilmoqda.

Yana bir yangilik. “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi ishga tushirilishi bilan foydalanuvchining ish faoliyatida uzilish bo‘lmaydi. Xodim yashash va ishlash joyidan bir oyga ajralishiga hojat qolmaydi. Mustaqil ta’lim shaklida “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasidan foydalangan holda malaka oshirishda o‘qish muddatlari va sur’atlarini xodimning o‘zi belgilaydi. Malaka oshirishning turli muqobil shakllari joriy etilishi natijasida o‘qituvchi kasbiy ehtiyojlari asosida xohlagan kursni tanlab, malaka oshirishi mumkin.

Bu ta’lim tizimiga nima beradi?

Xodimlarning ishdan ajralmagan holda doimiy malakasini oshirish imkoniyati yaratildi. Tizimda korrupsiya holatlari bilan bog‘liq bo‘lgan bitiruv malaka ishi, yakuniy attestatsiya va chiqish testi, turli oraliq imtihonlaridan voz kechildi. Ularning o‘rniga tinglovchilarning bilimini diagnostika qilish va o‘zlashtirish darajasini aniqlashning avtomatlashtirilgan mexanizmlari joriy qilindi.

O‘qituvchilar malaka oshirishga borganda o‘rnini boshqa o‘qituvchi bilan qoplash muammosi bartaraf etildi. Har bir tuman xalq ta’limi bo‘limi rahbarlari hamda fan metodisti o‘ziga biriktirilgan hudud va fan kesimida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini monitoring qilish va baholash imkoniyati yaratildi. Amaliyotda pedagoglarning malaka oshirishdan chetda qolib ketishi holatlari mavjud edi. Platformada tizimdagi barcha xodimlarning ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi. Har bir pedagog muntazam ravishda malakasini oshirishga jalb etiladi. Biror pedagog e’tibordan chetda qolmaydi.

Oziq-ovqat xavfsizligi

YERNI TO‘YDIRGANNING qorni to‘q

Abdug‘affor JO‘RAYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Keyingi yillarda dunyo miqyosida oziq-ovqat muammosi global masalaga aylanib boryapti. Ochlik va qashshoqlikdan aziyat chekayotganlar soni tobora oshmoqda. Bunga sabab sifatida qishloq xo‘jaligi va asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirib beruvchi mamlakatlarda davom etayotgan harbiy harakatlar, shuningdek, iqlim o‘zgarishi va haroratning me’yoridan ortiq isib borishi natijasida qurg‘oqchilik hamda cho‘llanish jarayonining tezlashishini ko‘rsatish mumkin. Bu esa sayyoramizdagi yana millionlab insonlarni ocharchilik va suvsizlik muammosiga giriftor qilmoqda.

Albatta, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish masalasi yurtimizda ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Shu bois, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilish bo‘yicha dunyoda o‘z o‘rniga ega davlatlardan. Bu masala doim davlatimiz diqqat markazida turadi. Xususan, so‘nggi yillarda suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki mamlakatning asosiy suv manbai bo‘lgan Amudaryo va Sirdaryoning suv zaxirasi yildan yilga kamayib bormoqda. Bu yaqin yillarda qishloq va suv xo‘jaligini jiddiy muammolar kutib turganini bildiradi. Mazkur sharoit ko‘payib borayotgan aholini ekologik toza qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda oziq-ovqat bilan ta’minlashda yangicha yondashuv va sa’y-harakatlarni talab qiladi.

Shu yil 12-fevralda qishloq xo‘jaligida yangi zaxiralarni ishga solish hamda 2024-yilgi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilishda ayni shu muammolarga ham alohida e’tibor qaratildi. Yig‘ilish avvalida so‘nggi yillarda dehqon-fermerlarning manfaati, daromadi oshib borayotgani, klaster tizimi rivojlanib, sohaga zamonaviy texnika va chuqur qayta ishlash kirib kelgani ta’kidlandi. Buning natijasida o‘tgan yili sohada ishlab chiqarish 4,1 foiz o‘sgani va eksport qiymati 2 milliard dollarga yetgani, shuningdek, 2023-yilda ilk bor 3 million 700 ming tonna paxta, 8 million tonna g‘alla yetishtirilgani qayd etildi.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi yeri hamda suv resurslaridan samarali foydalanish borasida hali yechimini kutayotgan muammolar mavjudligiga urg‘u berildi. Mahsulot yetishtirishdagi tannarxni kamaytirish, hosildor urug‘ va ko‘chat yetkazib berish, dehqonlarni yangi agrotexnologiyalarga o‘qitish kabi masalalarga to‘xtalib o‘tildi. Mutasaddilarga suvdan samarali va oqilona foydalanish, suv isrofini kamaytirish maqsadida ariq va kanallarni betonlashni tezlashtirish bo‘yicha topshiriq berildi.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, aholini sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash davlatimizning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelgan. Buni hududlarga tashrifda ham ko‘rish mumkin. Prezidentimiz 14-mart kuni Sayxunobod tumaniga tashrifi davomida ham sohaga alohida e’tibor qaratdi. Chunonchi, tumanning eng katta zaxirasi ham, imkoniyati ham yer ekani, Sayxunobod aholi jon boshiga tomorqa 20 sotixdan ortiq bo‘lgan 26 tumandan biri ekani qayd etildi. Shu bilan birga, bu yerning 10 foizi ishlatilayotgani, asosiy ekin beda va makkajo‘xori bo‘lib qolgani tanqid qilindi.

Agrar sohaga oid muammolarni o‘z vaqtida hal etish maqsadida 18-martda ham qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatida investitsiyalarni jalb qilish va eksportni ko‘paytirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda soha bo‘yicha faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar bilan muloqot qilindi, taklif va fikr-mulohazalari eshitildi.

2023-yili Surxondaryo viloyatida 29,2 trillion so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirilib, hududiy yalpi o‘sish 104,3 foizni tashkil etdi. Jumladan, yil yakuniga ko‘ra, 761 ming tonna don, 259 ming tonna paxta, 1 million 201 ming tonna sabzavot, 350 ming tonna kartoshka, 345 ming tonna poliz, 188 ming tonna meva,110 ming tonna uzum, 217 ming tonna go‘sht, 993 ming tonna sut, 592 million dona tuxum, 6,3 ming tonna baliq yetishtirilgan.

2024-yilda 30,6 trillion so‘mlik mahsulot tayyorlab, o‘sishni 104,7 foizga yetkazish belgilangan. Shu maqsadda Angor va Termiz tumanlarida umumiy qiymati 32,5 million dollarga teng 3 ta kichik agrologistika markazi tashkil etiladi. Shuningdek, tayyor bog‘ barpo etish bo‘yicha Sherobod, Oltinsoy, Qumqo‘rg‘on va Termiz tumanlarida 5 ta loyiha amalga oshiriladi. Buning uchun 18,5 million dollar yo‘naltirish rejalashtirilgan. Bu esa, o‘z navbatida, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlari hisobiga ishsizlar bandligini ta’minlash bilan birga real sektor hamda aholi daromadini oshirishga xizmat qiladi.

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti olimlari ham mas’uliyatni chuqur his qilgan holda viloyatda agrar sohani taraqqiy ettirishga hissa qo‘shmoqda. Jumladan, meva-sabzavotchilik, g‘allachilik, paxtachilik, chorvachilik, parrandachilik va pillachilik bo‘yicha klaster hamda dehqon-fermer xo‘jaliklariga amaliy yordam berib kelmoqda.

Bir paytlar sharqiroq soylarday hayqirib yurgan shoirlar qatoriga sokingina bir irmoq, kamsuqumgina bir o‘zbaki ariq kelib qo‘shilganini birov sezib, birov sezmay qolgandi. Qaldiroqlar guldiragan, bulutlar bilan chaqinlar qilichbozlik qilib, alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib yotgan bahor osmonida oy shunday noxosdan paydo bo‘ladi, quyosh shunday bilinmaygina chiqadi. Keyin… hammayoq nurafshon, munavvar bo‘ladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 24-aprel, 78-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

26-aprel – O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludi kuni

BU YORUG‘ DUNYODA O‘CHMAS CHIROG‘IM

yoxud ortda qolgan iz

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

Hazrat Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining “Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari” faslida sohibkamol shoirlarga baho berarkan: “... olamda zavq-u hol ahli bular latoyifi bila masrurdurlar va bular maorifi bila huzur qilurlar”, deya e’tirof etadi. Ulug‘ bobomizning bu ta’rifiga “zavq-u hol ahli” qalbidan allaqachon joy olgan bulbulzabon shoirimiz Muhammad Yusuf ijodi ham bevosita taalluqlidir, deb o‘ylaymiz.

El-u yurtning qaddu bastini yuksak, munosib so‘z bilan ko‘rsata bilmoq hamma shoirlarga ham nasib qilavermaydi. Taqdirning beshafqat hukmini qarangkim, Andijondan chiqqan yana bir shoirga Zahiriddin Muhammad Bobur umrini ravo ko‘rmish. Taqdir — haqdir.

U ozod, dilbar Vatanini bir farzand yanglig‘ sidqidildan, ko‘nglini osmonlarday keng ochib kuylab o‘tdi.

“Ey *do‘stlarim, dunyoda ortda qolgan iz yaxshi*”, degan shoirdan el-u eldoshlari qalbida o‘chmas iz qoldi. Xokisor, mehnatkash elini, ulug‘ Vatanini o‘ziga xos, hammaga tushunarligina qilib tarannum etdi. Qizg‘aldoqday sevgisi, kapalakday muhabbatini shabnamga cho‘mgan maysalar misol toza, beg‘araz va iddaosiz aytib o‘tdi.

* * *

Bir paytlar sharqiroq soylarday hayqirib yurgan shoirlar qatoriga sokingina bir irmoq, kamsuqumgina bir o‘zbaki ariq kelib qo‘shilganini birov sezib, birov sezmay qolgandi. Qaldiroqlar guldiragan, bulutlar bilan chaqinlar qilichbozlik qilib, alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib yotgan bahor osmonida oy shunday noxosdan paydo bo‘ladi, quyosh shunday bilinmaygina chiqadi. Keyin... hammayoq nurafshon, munavvar bo‘ladi.

She’riyat Muhammad Yusuf uchun tom ma’noda qismatga aylandi. So‘z yo‘li, she’r yo‘li uning hayot yo‘li, umriy taqdirini belgilab berdi.

Vatan haqida qalamkash zoti borki yozgan, yozyapti. Biroq *“Osmonga bo‘y cho‘zgan oqterak o‘lkam!”* yoki *“O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga, Rimni alishmasman bedapoyangga”*, deyishning gashti o‘zgacha. Vatanning o‘zi misol tushunarli, halol va xokisor eli yanglig‘ soddagina qilib aytganga ne yetsin:

Sen shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam,
O‘g‘lim deb, bosh egib turgan chinorim,
Qo‘ynimdagi iftixorim,
Bo‘ynimdagi tumorim,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim!

Shoirning qaddu qomati, qalbining bo‘yu bastini, qiyofasi-yu ko‘ngil dunyosini she’ri ko‘rsatadi, uning zohiri ham, botini ham o‘z she’ridir. Bu she’riyat o‘z-o‘zidan yaralgani yo‘q. Xudo bergan bu iste’dod “Shuvoqlari ko‘chgan eski uylar”, ajin bosgan aziz va qadrdon yuzlarni eslatuvchi nim nuragan paxsa devorlaru tuproq ko‘chalarning tungi sukutlaridan, onaizorlarning mehru sog‘inchlari, otalarning umriy zahmatlari isi kelguvchi yaktak-choponlari, suluv qizlarning kulgilari-yu qoshu kipriklari aro o‘sma maysasidek ko‘karib, barg yozib, kamol topdi. Bu she’riyat mehr-u sog‘inch, dard-u hijron, tiriklik va o‘lim, diydor va ayriliq tarbiyasini olgan, shuning uchun unda mehr ham, sog‘inch ham bisyor.

Shoir savol ham bermaydi, javob ham so‘ramaydi. She’rlar sizni so‘roqqa tutmaydi. U bor-yo‘g‘i ko‘nglini to‘kadi, she’r shaklida sahifalarga to‘kilgan ko‘ngil kishiga yuk yuklamaydi, siz ularni shundoqligicha, ya’ni she’rlarni ko‘ngil misol, ko‘ngilni she’rlar yanglig‘ qabul qilasiz. Bu she’rlar darhol, daf’atan birodaringiz, yor-u singlingiz, onangiz-u Vataningizga aylanib qoladi.

Beixtiyor bahor gul-chechaklarini sochayotgan jozib oqshom aro uning o‘ychan qiyofasi gavdalanadi, diydalari ostida bir juft bezovta qush in qurgan, yaxshilab tikilsangiz, ko‘klam yomg‘irlarida ivigan oq ko‘ylagi ostidan ozg‘in jussasi ichra yuragi ko‘rinib turganday... Uni el rag‘batiga sazovor etgan she’rlari, dehqon qo‘lidagi nonday jaydari va soddavash she’riyati. Ularda da’vo yo‘q, o‘ziga mahliyolik va bodilik yo‘q. She’rlar ko‘ngil bog‘ining shavq shamollarida shovillab to‘kilgan yaproqlaridir. “Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?” deyilgan, bir bog‘ning rahm-u shafqati berkinib yotgan satrginada jayron ko‘zlarini dalalarning g‘ubori chulg‘agan oysingillar uchun bir dunyo mehr bordir.

Muhammad Yusufni bolalar yaxshi ko‘radi, xijolatda qabosi hilpirayotgan lolalaru to‘yga qatlama qatlayotgan kayvoni xolalar yaxshi ko‘radi. U halol va poktiynat elning halol bir dilbandi sifatida *“Yorilgan qo‘llarga termulib yurib, Shu yalpiz dalada men ham bo‘y yetdim. Keyin she’r yo‘qladi tushimga kirib, Keyin o‘zim yo‘qlab Toshkentga ketdim. Navoiy satriga termulib yurib, Tuydim jamolini bu ko‘hna elim, Keyin sen izlading tushimga kirib, Keyin o‘zim izlab yoningga keldim”*, deya xirmondagi bukri tolda belanchagi chayqalayotgan bolaga ham hisob berishdan tortinmaydi. “Xirmondagi bola” chaqaloq shoir uchun halollik-poklik ramzi, el va Vatan timsoli, uning eng toza, pokiza so‘zi ham shu:

Men keldim shul shaffof so‘zimni topib,
Men bildim, yurakdan Vatanni sevmoq —
Belanchak osilgan tollarni o‘pib,
Chaqaloq ko‘ziga halol termulmoq...

* * *

Haqiqiy she’riyat hamisha fidoyilikni talab qiladi, shoirdan beayov qurbonlikni, o‘zini o‘zi shafqatsizlarcha So‘zga baxshida etmoqni so‘raydi. Muhammad Yusuf chin shoir edi, shundayligicha qoldi. U ilk she’ri chiqqanidan buyon bir odam zotiga berilmish nimaiki quvonch-u iztirob, mehnat-u zahmat, baxt-u farog‘at bo‘lsa, hamma-hammasini she’riga, she’rlariga sarfladi. O‘zini, yaqinlari, gulday qizchalarining bari orom-u halovatini ham she’rga almashdi. Hamisha kamgap, iymanib yurguvchi bir shoir so‘zbozlaru so‘zfurushlar dunyosiga she’r uchun ayovsiz yashamoq, jonini, borlig‘ini sarflamoq qandoq bo‘lishini hayoti, kitoblari ila ko‘rsatib ketdi. Shuning uchun “Nima qilsam she’r ishqida qildim men”, degan satri ham endi butun hayoti-yu ijodiga o‘zi qo‘yib ketgan xulosaday jaranglaydi. “Yurtim, seni iddaolar qilmay sevaman”, deb aytganida ham nechog‘liq haq edi.

Istiqlol davrida yurtda qanchalar yo‘l-u ko‘priklar solingani yanglig‘ necha aziz-u avliyolarning muqaddas makonlari obod etilib, yana ne-ne muhtasham, muazzam binolar tiklangani misol adabiyotimiz, she’riyatimizda ham bu yillar nurli izlar qoldirdi. Ustozlar izidan, safdoshlari bilan yonma-yon Muhammad Yusuf ham, ta’bir joiz bo‘lsa, she’rlari bilan nurli ko‘priklar solib, yangi yorug‘ yo‘llar ochishga muvaffaq bo‘ldi. Uning nazmiy yo‘l-ko‘priklari ko‘ngillarni ko‘ngillarga uladi, dillarni dillarga yaqinlashtirdi, qalblarni bir-biriga yor-u oshno etdi. U aziz va betimsol diyorini o‘zgacha bir zavqu shavq bilan kuyladi:

Odam bilan ulg‘ayar makon,
Dunyolarga doston bo‘ladi.
Erkli elning go‘dagi sulton,
Sultoni mard inson bo‘ladi.
Dahri dun hammadan qoladi,
Bizdan ozod Vatan qoladi!

Ilk she’rlari bilanoq katta ustozlar nazariga tushgan, mudom ularning diqqat-e’tiborida bo‘lgan, “osmonqalb shoir” deya nom olgan shogirdning ham shogirdlari qisqa muddatda ko‘payib ketdi.

Abdulla Oripov Muhammad Yusuf bilan ustoz va shogird bo‘lib birga Dog‘iston xalq shoiri Rasul Hamzatovning tavallud to‘yiga Maxachqal’aga borganlarini, Rasul boboning Muhammadjonni darrov yaxshi ko‘rib qolganini, unga she’r o‘qitib, “She’rni o‘zimday o‘qirkansan”, deya maqtaganini alohida mehr va sog‘inch bilan eslaydi. Bu xotiralarning o‘zi ham, u diydorlashuvlar ham bugun she’riy sog‘inchlarga aylangan.

Surat matbuotda birinchi marotaba berilmoqda.

Qushday uchib quchog‘ingdan dunyo kezdim,
Kezib-kezib topganlarim Sog‘inch bo‘ldi,
Qancha olis ketsam shuncha qadring sezdim.
Qayda yursam yodi mehring ovunch bo‘ldi.
Aylanayin qora qosh-u ko‘zingdan-a,
O‘zingdan qo‘ymasin, xalqim, o‘zingdan-a!

* * *

Ustoz-muallimlar davrasida she’r, adabiyot haqida gap ketganda, domlalardan biri “So‘z Vatanday bo‘lmog‘i kerak!” degan chiroyli iborani ishlatgan edi. Sal bani balandparvoz, kitobiyroq xitobday tuyulsa-da, har holda shoir so‘zining salmog‘i, miqyosi darajasini belgilab beradigan to‘g‘ri gap. “Imon yo‘q go‘shada ehrom qaydadir”, deydi Muhammad Yusuf. Uning nazdida So‘z Vatan tushunchasi yanglig‘ qadrli va aziz. “Men *netib shoir o‘lay, Bir qalam o‘ynatmasam. Jon qadar bir so‘z so‘rab, Bir kalom she’r aytmasam”*, deyilganida ham aynan shu muqaddas mas’uliyat bilan burch nazarda tutilgan. “Shunday yillarni ko‘rdikki, baxtli bo‘lish uyat edi”, degandi ustoz Asqad Muxtor. Muhammad Yusuf chin ma’noda baxtli bo‘lish, ya’ni odam insonday yashashi uyat sanalmagan, el-u yurtimizning asriy orzu-armonlari ushalgan g‘ururbaxsh bir zamonning ozodqalb shoiri bo‘lib kamolga yetdi. Shuning uchun ham *“Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana, Xalq bo‘lishga qaddi sendek kim bor yana”*, deya ko‘ksini to‘ldirib so‘z aytdi. So‘zini aytolmay yig‘lab ketganlarni bilgani, ko‘rgani, ularning haqqi-hurmati uchun ham shoir qalbida So‘z qadri Vatan qadri yanglig‘ tabarruk va muqaddas tushunchaga aylanadi. O‘kinch-armoni esa xuddi chorlov, da’vat misol jaranglaydi:

Yo‘qsa yetmasmidik So‘zning qadriga,
Poyiga ming sadqa etmasmidik jon,
Vatanning qadriga,
do‘stning qadriga,
Kunlarning qadriga shu dorilomon...

Dunyoda noraso, noshukr farzand bo‘lishdan ham yomoni yo‘q. Shoir uchun bu eng iztirobli holat. Ulug‘ ajdodlarga munosib voris bo‘lib yashamoq tuyg‘usi uning yuragining yuksak va nurlanib turgan porloq qirrasi. Hayot-u tiriklikning, farzandlik va shoirligining bor mazmun-mohiyatini u shu qirradan turib belgilaydi.

“Muhammad Yusuf she’rlarini rayhonlarday ekib ketdi”, degandi muxlislardan biri. Uning she’rlarini yurtimizda nimaiki go‘zal, nafis, jozibali va tarovatli bo‘lsa, hamma-hammasiga qiyoslash mumkin. To‘rg‘ay desa ham bo‘ladi. Kapalaklarga o‘xshatish mumkin, qaldirg‘och desa ham uchib ketaveradi. Jilg‘alarday jildirab turadi, yulduzlardek jimirlaydi bu she’rlar. “Qovurg‘amning tagida bir qumri yig‘lar”, deya o‘qiganingiz hamono ko‘krak qafasidan potirlab chiqib kelayotgan qumrini ko‘rasiz. Yalpizlarday bo‘y taratib, giyohlarday ifor sochayotgan, qiyg‘os gullagan olchazorday oppoq bir she’riyat. Dala-dashtday anvoyi, lolazor qirlarday qizg‘ish-qirmizi, hilpirab, chayqalib, yastanib yotibdi. Faqat bir lola, birgina lolaqizg‘aldoq...

Oldingga men borolmasam, o‘t gunohim,
Bir yo‘qlab qo‘y men dunyodan
o‘tgan chog‘im.
Qabrim uzra hilpirab tur, qizg‘aldog‘im,
Muhammaddan bo‘lak do‘sti
devonang yo‘q.

* * *

Shoir hayotning haqiqiy oshig‘i, tiriklikning chin vola-yu shaydosi edi. She’rlari ham shu shaydolik va oshuftalikning mahsuli bo‘lib dunyoga keldi. Hazrat Navoiyning “Ki shaydolik diyoridin yetishgan karvondir bu”, degan satri bor. Muhammad Yusuf she’riyati shu “shaydolik diyori”ning yangi ko‘klami misol sarin, toza va muattar havolari bilan kirib keldi. Kirib keldi emas, ko‘klam misol, uning yomg‘irlari-yu sabolari yanglig‘ yuz berdi, sodir bo‘ldi.

“Ko‘klamoyim” so‘zini she’riyatimizda birinchi bo‘lib Abdulhamid Cho‘lpon ishlatgan bo‘lsa kerak. Uning “Ko‘klamoyim yo‘lga chiqqan. Ko‘klamoyim qo‘zg‘algan”, deya boshlanguvchi she’ri bahorning sog‘inchu sevinchi bilan birga shoir qalbining iztirob ila armoni hamdir. “Ko‘klam bilan yurtimga ham bir ko‘karish kelsaydi”, deya armon qiladi Cho‘lpon. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bu armon, bu “ko‘karish”ning nomi yurt va millat ozodligi edi va Cho‘lpondek shoirlarimiz bu armon uchun jonlarini o‘lponga berganini istiqlol davri shoiri Muhammad Yusuf ham armon va g‘urur bilan she’rga soladi:

O‘lsa o‘zi o‘lar,
So‘zi o‘lmaydi,
Hamisha barhayot nasl shoirlar.
Haqiqiy shoirning qabri bo‘lmaydi,
Yurakka ko‘milar asl shoirlar.

Muhammad Yusufning ko‘klami, “Ko‘klamoyim” she’ri — uning hayotga, tiriklikka muhabbatining go‘zal va dardli taronasi. Shoir bu ko‘klamiga yashamoqning qancha alam va ayriliqlarini boshdan o‘tkazib yetishgan. *“Sochimda oq, men bahordan o‘tindim, Ko‘klamoyim, ko‘kingdan ber bir chimdim”*, deydi u. She’rning avvalgi satrlaridanoq sizni ham tansiq va orziqtirguvchi bir sog‘inch chulg‘ab oladi.

Kel-da endi sog‘intirmay odamni,
Sen yo‘g‘ingda bir g‘am bosdi yelkamni,
Qorlar kurab ko‘mib keldim otamni...
Ko‘klamoyim, ko‘kingdan ber bir chimdim.

“Bir chimdim ko‘klam”, bir ko‘klamlik hayotning naqadar aziz va g‘animat ekani, “qumri bilan omon chiqdik biz qishdan” deyilsa-da, bu diydorga erishmoqning o‘zi qanchalar quvonchli va armonli, nechog‘liq orziqtirguvchi va oniyligi juda jozibali aytiladi. She’rning eng iztirobli satri esa sizni ham muvozanatdan chiqaradi:

... Yana senga yetamanmi, yo‘qmi men...

Bu she’r shoirning o‘z ko‘klamiga salomi, ayni paytda vidosi hamdir. Bunday she’r va qo‘shiqlar qalblarni qayta boshdan tarbiyalash qudratiga ega. Umr ko‘klamlarining g‘animatligi, hayot bog‘larida odam bolalaridan faqat ezgulik daraxtlarigina mangu ko‘karib qolishini eslatib turguvchi she’rlargina shundoq kuylanadi.

***

“Xalqona” degan so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lsangiz, ikki ulug‘vor so‘z yuzaga keladi: Xalq va Ona.

Muhammad Yusufning Vatan haqidagi hamma she’rlari ona haqidadir, ona haqidagi barcha she’rlari ayni paytda Vatanga bag‘ishlangandir.

Oltin beshik uzra allalar aytib,
Hamisha bedorim — onaizorim.
Jilg‘asi jarangi tongda uyg‘otib,
Yuragimga kirib kelgan bahorim.
Vatan, qadrim uyi — xonaqohimsan,
Momolarim yotar sajdagohimsan.

“Kimda g‘am ko‘p bo‘lsa — u mening onam”, deydi u yana bir she’rida. Shoir onasini Vatanni suygandayin, Vatanini esa onasini suygan yanglig‘ yaxlit va beminnat mehrini berib kamol topdi. She’ri ham, so‘zi ham shu mehr barobarida yurtning bo‘yu bastiga qarab voyaga yetdi. Uning muhabbatini onaga alohida, Vatanga alohida, ayrc-ayro holda tasavvur qilish qiyin. U o‘z diyorini, ona tuprog‘ini bir farzand suyganchalik suydi, bir farzand yanglig‘ ko‘nglini ufqlarday keng ochib tarannum etdi. Uning dardi nurli, shu bois, armonli satrlaridan ham ko‘nglingiz yorishib ketadi. Shuning uchun bu she’rlar kishiga dard ustiga dard yuklamaydi, aksincha, ruh bag‘ishlaydi, ko‘ngilni ko‘taradi.

* * *

She’ri o‘ziga, o‘zi she’riga o‘xshagan shoir.

Biz Muhammad Yusuf haqidagi bu ta’rifni ko‘p bora aytganmiz, yana takrorlashdan tortinmaymiz. Bugun uning do‘stlari ko‘p, ko‘chirmachi-taqlidchilari ham bisyor. U haqda xotira yozaman, deb turgan turfa yor-u oshnolarni ham tushunsa bo‘ladi. Bunga bois nomi ham, she’r-qo‘shiqlari ham el aro ovoza bo‘lib ketgan shoir do‘stimizning o‘zi va so‘zi. “Toki mening taqlidchilarim bor ekan, men buyuk shoirman”, degan ekan bir ustoz adib. Muhammad Yusufning she’riyatga kiyib kirgan nazmiy yaktagi o‘ziniki edi. She’r-u shoirlik uning uchun umriy qismatga aylandi. U hayotning hamma hashamlariga erishmog‘i mumkin edi, biroq hammasidan she’rini, vijdonini baland qo‘ydi. Shoirlar bor — bir umr oru nomusini yerga urib, mashhur bo‘lmoqning payidan quvlagani-quvlagan. Muhammadjon shon-shuhratni ta’ma qilmadi, shuhrat unga yetisholmay, xun bo‘lib, izlaridan yugurib, so‘roqlab yurdi.

Dardli, samimiy tiniq she’rlari bilan qisqa vaqt ichida qo‘shiqchilikning dimiqib ketgan havosini tozartirishga muvaffaq bo‘ldi. She’rlari qo‘shiqday o‘z ohangi, musiqasi bilan tug‘ilgani uchun ham darhol xalq suygan, odamlarning ko‘nglidan tez joy olgan mashhur ashulalarga aylanib ketdi. Uning qo‘shiqlari maddohlik, quruq qofiyabozlig-u o‘rtamiyonachilikdan yiroq, nimaiki yozgan, aytgan bo‘lsa, chin dildan, mehr va muhabbat bilan aytgan edi. Oddiy kundalik so‘zi ham shoirning kimligini, hayotdagi tutumi, insoniy qiyofasini bildiradi. Misol uchun, odmiroq kiyimiga qarab, “Muhammad aka, shunday mashhur shoirsiz, qimmatbaho kostyumlardan kiyib yursangiz bo‘lmaydimi?” degan oliftaroq san’atkorga “Hammangni kiyintirib yuribman-ku, menga shuni o‘zi yetadi-da”, deya beozorgina bergan javobida ham uning shoirligi, o‘ziga xos fe’l va e’tiqodi ko‘rinib turardi.

Chin shoirni haqiqiy muhabbati yuksaltiradi. Tug‘ilgan tuprog‘iga, Vataniga, qolaversa, ona shahriga aylanib qolgan Toshkentga bo‘lgan beg‘ubor muhabbati Muhammad Yusufni shoir sifatida kamolga yetkazdi.

Vatanparvarlik oiladan, oilaviy muhitdagi tarbiyadan boshlanadi. Muhammadjon o‘z oilasini bo‘lakcha mehr bilan sevuvchi, oilaparvar, bolaparvar inson edi. Buni volidai muhtaramasi, uka-singillari, umr yo‘ldoshi va qizlariga bag‘ishlangan jigarlik, dilbandlik va otalik mehr-muhabbati barq urib ufurib turgan “Onam yig‘lar”, “Ona”, “Ruh to‘tisi”, “Madina”, “Uzr”, “Rafiqamga”, “Ey, jufti halolim”, “Lolaqizg‘aldoq” singari ko‘plab she’rlarining hozir ham keng kitobxonlar tilida mehr bilan aytilib, o‘qilayotganidan bilsa bo‘ladi. U bir zamonlar “Bitta qizimni ham uzatolmadim”, deya armon qilgan, bir paytlar “Biz hali hammadan o‘tamiz, qizim!” deya she’riy allalar bag‘ishlagan qush, kapalak, qalamqosh qaldirg‘ochlardek qizchalar — Ma’suda, Madina ham, Nozima ham ulg‘ayib, bo‘y yetib, bugun baxt-saodatining munis bekalari bo‘lib turibdi. Hurmatli domlamiz G‘aybulla Salomovdek ulkan olimning tarbiyasini olgan umr yo‘ldoshi Naziraxon har gal “Eslasak, arzirli xush damimiz bor”, deya armon qilarkan, birga kechgan hayotlarini shukronalik bilan yodga oladi.

Uni dunyoga keltirgan aziz onasi Enaxon ayaning ham sog‘inchi bisyor edi. Har bahor ko‘klam bilan shoir o‘g‘li ham eshikdan kirib keladiganday yo‘l qarab, ilhaq va intizor bo‘lardi. Bugun onaizor ham yo‘q. Borgan joylari jannatning o‘rtasidan bo‘lsin, Xudo rahmat qilsin, deymiz. Bari — hayot, tiriklik. U o‘z shiddati, sevinch-u yupanchlari, ayriliq va diydorlari ila gurillab davom etayotir. Qanotlari qayrilmas, muzaffar va munavvar hayot.

Muhammad Yusufning qabriga qo‘yilgan yodgorlik lavhida uning bir satrgina she’ri bitilgan: “Bu yorug‘ dunyoda o‘chmas chirog‘im”. Bir satrginada shoipning butun hayoti, yashagan umrining mazmun-mohiyati jo bo‘lgan. Tiriklik bog‘ini o‘z nomlari, amallari bilan bezab ketganlarga hamisha sharaflar aytilgan. Muhammadjon, Muhammad Yusuf shunday inson edi, shunday shoir bo‘lib el qalbida qoldi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1322.
44543 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 21:00 Topshirildi — 23:55

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05